

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ПЕДАГОГ ВА РАҲБАР КАДРЛАРИНИ ҚАЙТА
ТАЙЁРЛАШ ВА УЛАРНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ
БОШ ИЛМИЙ - МЕТОДИК МАРКАЗИ**

**ЎзДЖТУ ҳузуридаги чет тилларни ўқитишнинг
ИННОВАЦИЯВИЙ МЕТОДИКАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ МАРКАЗИ**

**ФИЛОЛОГИЯ ВА ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ: ШАРҚ ТИЛЛАРИ, ЯПОН, КОРЕЙС
ТИЛЛАРИ**

**ШАРҚ ФИЛОЛОГИЯСИНИНГ ДОЛЗАРБ
НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ
модулибўйича**

Ў Қ У В – У С Л У Б И Й М А Ж М У А

Тошкент - 2016

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘zDJTU HUZURIDAGI CHET TILLARNI O‘QITISHNING
INNOVATSIYAVIY METODIKALARINI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY MARKAZI**

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH: SHARQ TILLARI

**“SHARQ FILOLOGIYASINING DOLZARB
NAZARIY VA AMALIY MASALALARI”
moduli bo‘yicha
O‘QUV USLUBIY MAJMUASI**

Toshkent – 2016

O'quv -uslubiy majmua O'zDJTU huzuridagi RIAIM Kengashining 2016 yil _____dagi ____ -sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

Tuzuvchi: ToshDShI dotsenti, f.f.n. J.Ziyamuxamedov

Taqrizchilar: : Sugano Reyko (Yaponiya) - TDSHI “Yapon filologiyasi” kafedrası dotsenti

S.Nosirova– ToshDShI qoshidagi Konfusiy nomidagi O'zbek-Xitoy instituti direktori, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O'quv -uslubiy majmua O'zDJTU huzuridagi RIAIM Kengashining 2016 yil _____dagi ____ -sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.ISHCHI DASTUR.....	4
II.MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	<u>8</u>
III. AMALIY MATERIALLAR MAZMUNI.....	9
IV. KEYSLAR BANKI	25
V.MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	25
VI.GLOSSARIY	27
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	34

I.ISHCHI DASTUR

Kirish

O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'liqining paydo bo'lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.¹

Respublikamiz o'z mustaqilligini ko'lga kiritgan kundan boshlab xalqimiz ma'naviy-madaniy boyliklarini xar tomonlama o'rganish, ularni kelgusi avlodlarga to'liq yetkazish va hozirgi avlodni ulardagi ijobiy an'analar asosida tarbiyalash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Uzok tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqi, uning yuksak madaniyati, qadriyatlari, boy ilmiy merosi butun jaxonning diqqat - e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan va kelmoqda. Ibn Sino, Beruniy, Ulugbek, Muxammad al-Xorazmiy, Maxmud Zamaxshariy kabi buyuk ajdodlarimizning nomlari va yaratgan asarlari mashxur bo'lib, ularning ijodlari jaxon madaniyati xazinasiga qo'shilgan bebaxo boylik bo'lib xisoblanadi. Davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimashunoslar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berish kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu dasturda tinglovchilar Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalarini o'rganadilar. O'zbek sharqshunosligining hozirgi yo'nalishlari, o'zbek sharqshunoslarining filologik asarlari, sharq tillarini o'rgatishdagi yutuq va kamchiliklar, sharq tilshunosligining asosiy o'ziga xos xususiyatlari, sharq adabiyotlari va ularni o'rganish haqida bilimlarga ega bo'ladilar.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalari” modulining maqsadi: sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalarini chuqur o'rganish va tahlil etish, sharqshunoslikning ob'ektini tadqiq etish, sharq manbalari, tillari, tarixi va sharq mamlakatlari adabiyotlarini o'rganish asosida to'plangan bilimlarni mutaxassislik fanlarini o'qitishda tadbiiq etishga o'rgatish.

“Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalari” modulining vazifalari:

- o'zbek sharqshunosligi va uning tarixiy ildizlari haqida axborot berish;
- sharq filologiyasi yo'nalishlarini: sharq qo'lyozma manbalarini, tillarini va adabiyotini o'rganish;
- Sharq filologiyasiga doir lingvistika va adabiyotshunoslik sohasiga oid masalalarni tahlil etishga o'rgatish;
- modul jarayonida egallangan bilimlarni sharq tillarini o'qitish jarayonida qo'llash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish;

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

-“sharqshunoslik”, “sharq tillari”, “sharq manbalari”, “sharq adabiyoti” va “sharq xalqlari tarixi” tushunchalari;

- sharq filologiyasi masalalarini o'rganishda sharq falsafasi, sharq xalqlari tarixi va sharq mamlakatlari iqtisodining o'zaro aloqasi;

-o'zbek sharqshunosligining hozirgi yo'nalishlari;

-o'zbek sharqshunoslarining filologik asarlari;

-sharq tillarini o'rgatishdagi yutuq va kamchiliklar;

-sharq tilshunosligining asosiy o'ziga xos xususiyatlari;

-sharq adabiyotlari va ularni o'rganish haqida **bilimlarga ega bo'lishi;**

Tinglovchi:

-o'z kasbiy faoliyat sohalarida sharq filologiyasining o'ziga xos jihatlarini anglashi va amalda qo'llash;

- sharq tillarini o'qitishda til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos usullarini tanlash;

- Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalarini hal qilishda tug'iladigan qiyinchilik va to'siqlarni tahlil

¹ Ислом Каримов. “Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожигаги роли ва аҳамияти” маросимидаги нутқи. Самарқанд. 16.05.2014

qilish;

- sharqshunoslikni fan sifatida tadqiq eta bilish, sharqshunoslik va uning ob'ekti va lug'aviy ma'nolarini farqlash va sharq tillarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni bilish **ko'nikmalarini egallashi**;

Tinglovchi:

- turli davrlar va mintaqalarda yuzaga kelgan yozma yodgorliklarning til va badiiy xususiyatlari haqidagi ilmiy xulosalarni amaliyotda qo'llash;
- sharq tillari yozuvida kompyuterda matnlar terish malakalariga ega bo'lish;
- sharq tillarini o'qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish;
- tilshunoslik fanining predmeti va uning maqsadi;
- sharq tillarida kommunikativ vazifalarni hal etish texnologiyalari, kasbiy muloqot usullaridan foydalanish, hamkorlik ishlarini olib borish;
- sharq tillarini o'qitishda yaratilgan elektron resurslardan unumli foydalanish **malakalarini egallashi**;

Tinglovchi:

- sharq filologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalaridan amaliy maqsadlarda foydalanish;
- adabiy muammolarni tadqiq etishda ilmiy yondashuvni aniqlash va asosiy tushunchalar, istilohlar;
 - Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolarning lisoniy qarashlari;
 - sharq ilmida til tasnifiga oid qarashlar bo'yicha berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llash yuzasidan qarorlar qabul qilish **kompetensiyalarni egallashi lozim**.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

«Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalari» kursi amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

«Sharq filologiyasining dolzarb nazariy va amaliy masalalari» moduli mazmuni o'quv rejadagi «Millatlararo muloqotning lingvistik asoslari» va «Tarjima uslubiyati» o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarda muloqotning lingvistik asoslari, tarjima qilish, tarjimaga o'rgatish bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xam xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Sharq filologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalaridan amaliy maqsadlarda foydalanish, adabiy muammolarni tadqiq etishda ilmiy yondashuvni aniqlash va asosiy tushunchalar, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolarning lisoniy qarashlari, sharq ilmida til tasnifiga oid qarashlar bo'yicha berilgan nazariy bilimlarni amaliyotda to'g'ri qo'llash yuzasidan qarorlar qabul qilish va ularning yechimini aniqlash va baholash, tavsiyalar berishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladi.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat				
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'lim
			Jami	jumladan		
		Nazariy		Amaliy mashg'ulot		
1.	Sharq filologiyasi yo'nalishlarini: sharq qo'lyozma manbalarini, tillarini va sharq mamlakatlari adabiyotlarini o'rganish.	4	4	-	4	-
2.	Sharqshunoslikni fan sifatida tadqiq eta bilish, sharqshunoslik: uning ob'ekti va lug'aviy ma'nolari.	6	6	-	6	-
3.	Sharq filologiyasi masalalarini o'rganishda sharq falsafasi, sharq xalqlari tarixi va sharq mamlakatlari adabiyotining o'zaro aloqasi.	10	8	-	8	2
4.	O'zbek sharqshunosligi: uning tarixiy ildizlari va hozirgi yo'nalishlari.	10	8	-	8	
	jami	28	26	-	26	2

1-Mavzu. Sharq filologiyasi yoʻnalishlarini: sharq qoʻlyozma manbalarini, tillarini va sharq mamlakatlari adabiyotlarini oʻrganish.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shak-shubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, gʻoyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsuli» sifatida oʻzining alohida oʻrganish obʻektiga va tekshirish metodiga ega boʻldi. Qadimgi turkiy til katta uch davrni oʻz ichiga oladi: 1. Eng qadimiy turkiy til; 2. Qadimgi turkiy til; 3. Eyoki turkiy til. Maxmud Zamaxshariy oʻz ijodining katta qismini arab tilshunosligiga bagʻishlagan. Shu mavzuda noyob asarlarni meros qilib qoldirdi. Allomaning «Muqaddamatul-adab» asari dunyo xalqlari orasida juda mashhur sanaladi. Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish 20 asrning 20-yillaridan ylga qoʻyildi.

2-Mavzu. Sharqshunoslikni fan sifatida tadqiq eta bilish, sharqshunoslik: uning obʻekti va lugʻaviy maʼnolari.

Oʻrta Osiyolik mashhur allomalarning jahon madaniyati, maʼrifati, ilm-faniga qoʻshgan hissasi ulkandir. Jahon tan olgan buyuk allomalar: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Koshgʻariy, Mahmud az- Zamahshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning tilshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmatlari kattadir.

XX asrning birinchi yarmida alohida fan sifatida rivojlangan oʻzbek sharqshunosligi dastlab haqiqiy maʼnaviyat xazinasiga aylangan va respublika qoʻlyozmalar fondida saqlanib kelayotgan mushtarak musulmon tamadduniga oid nodir asarlarini nashr etib, xalqimizga taqdim qildi. Mustaqillik yillarida esa oʻzbek sharqshunosligining imkoniyatlari kengayib, mumtoz sharqshunoslik safiga zamonaviy Sharq mamlakatlarining tarixi, hozirgi siyosiy-ijtimoiy hayoti, iqtisodi, yangi davr adabiyoti va madaniyatini oʻrganish ham qoʻshildi. Bu borada fundamental tadqiqotlar yaratilib, dolzarb izlanishlar olib borilmoqda.

3-mavzu. Sharq filologiyasi masalalarini oʻrganishda sharq falsafasi, sharq xalqlari tarixi va sharq mamlakatlari adabiyotining oʻzaro aloqasi.

Sharq va Gʻarb adabiy – madaniy aloqalari juda katta davrni qamrab oluvchi koʻp tarmoqli sohadir. Talay tadqiqotlar bitilib, muhim muammolar yoritilgan . Sharq va Gʻarb munosabatlarini davrlashtirish: 1) eng qadimgi davrlardan ellin madaniyatigacha boʻlgan oʻrta dengiz atrofidagi xalqlar madaniy aloqalari; 2) III – VI asrlardagi yunon – Oʻrta Osiyo, yunon - Eron, yunon – Hind aloqalari; 3) VIII – IX asrlarda yunon – Arab aloqalari; 4) XI – XII asrlarda Ispaniya orqali amalga oshgan Sharq – Gʻarb aloqalari; 5) XIV – XVIII asrlardagi aloqalar; 6) XIX asr madaniy aloqalari; 7) XX asr Sharq- Gʻarb aloqalari kabi. Xar bir davr aloqalaridagi tipologik ayniyatlarni butun yaxlitligi bilan ochib berish kabi muhimdan – muhim vazifalar ham hali oldinda turibdi. X – XI asrlar fan sohasidagi emas, badiiy ijodda ham yuksalish davri boʻlgan. Adabiy tur tushunchasi. Badiiy adabiyotni turlarga ajratish prinsiplari. Adabiy turlar orasida chegaraning shartlilik. Epik turning oʻziga xos spesifik xususiyatlari. Rivoya eposning oʻzagi sifatida. Epik tur janrlari, janrlarga ajratish prinsiplari. Katta epik shakl (roman), oʻrta epik shakl (qissa, povest), kichik epik shakl (hikoya). Lirik tur va uning janrlari. Lirik turning spesifik xususiyatlari. Lirik qahramon tushunchasi Dramatik tur va uning janrlari. Dramatik turning oʻziga xos xususiyatlari. Drama va teatr.

4-mavzu. Oʻzbek sharqshunosligi: uning tarixiy ildizlari va hozirgi yoʻnalishlari .

Abu Nasr Forobiyning tilshunoslik va adabiyotshunoslik, poetika va ritorikaga tegishli asarlari. Abu Rayhon Beruniyning «Saydana» nomli asarida lisoniy qarashlarning berilishi. Ibn Sinoning fonetika sohasida yaratgan ishlari, bayon qilgan fikrlari, uning tovushlarni unli va undosh tovushlarga ajratilishini jahon tilshunosligi taraqqiyotiga qoʻshgan salmoqli hissasi. Turkiy tilni oʻrganish boʻyicha yaratilgan filologik tadqiqotlarning eng eskisi Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” (“Turkiy soʻzlar devoni”) asaridir. Asar hijriy 469 yili (melodiy 1076/1077 yilda) yozib tugallangan. Hozirda oʻzbek sharqshunosligining oldida turgan vazifalari va ularni amalga oshirish tadbirlari. Jahon adabiy jarayoni, undagi yoʻnalish va oqimlar almashuvi, modernistik tamoyillar (syurrealizm, ekzistensializm, postmodernizm), neorealizm oqimlari (magik realizm, intellektual realizm va hokazo) koʻrinishlarini kuzatmasdan hozirgi zamon sharq adabiyotiga kirib kelgan zamonaviy yozish usullarini (ong oqimi, ong osti, kollaj, assotsiativ obraz orqali fikr yuritish, fantasmagoriya, turli moduslar) tushunish qiyin. Hozirgi oʻzbek adabiyoti ham yangilanish jarayonini boshidan kechirmoqda, uni oʻrganilayotgan sharq xalqlari adabiyotlari jarayoni bilan taqqoslash sharqshunoslar zimmasiga kiradi.

OʻQITISH SHAKLLARI

Mazkur modul boʻyicha quyidagi oʻqitish shakllaridan foydalaniladi:

- noanʼanaviy oʻqitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi boʻyicha mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar yechimi boʻyicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

BAHOLASH MEZONI

№	Baholash mezon	Maksimal ball	Izoh
1	Portfolio yaratish- 1,5ball Keys tuzish – 1,0 ball	2.5	Integrallashgan til ko'nikmalarini har biri bo'yicha aniq topshiriqlar bajariladi va baholanadi

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.

MULOQOT TRENINGI

Ushbu trening tinglovchilarda dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda bunday mashg'ulot tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lgan holda o'tkaziladi.

FSMU TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqida fikrlarini bilish maqsadida), yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

BLIS-SO'ROV TEXNOLOGIYASI

Blis- pedagogikada tezkor, bir zumlik ma'nosida ishlatiladi.

Bu texnologiyada tinglovchilarga o'rganilgan butun mavzu yoki uning ma'lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo'yicha tuzilgan savollarga javob (og'zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko'rinishida) berishlari taklif etiladi.

BLIS – O'YIN TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya tinglovchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida tinglovchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi.

SINEKTIKA METODI

Bu metod amaliy, seminarlar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun qulay bo'lib, «aqliy hujum» metodiga yaqin. Bunda tinglovchi darsda qo'yilgan muammoni hal qilish yuzasidan analogiyaga asoslangan holda o'z fikrlarini, qarashlarini olg'a suradi. Bunda analogiya bevosita, shaxsiy, ramziy va xayoliy bo'lishi mumkin.

GALEREYANI AYLANISH METODI

Kichik guruhlarining barcha a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir kichik guruh o'zlariga berilgan muammoga belgilangan vaqt ichida fikrlarini yozib, javoblari yozilgan varaqlarini boshqa guruh bilan almashtiradi. Javoblarni olgan guruh ularni baholaydi va tugal bo'lmasa o'z variantlari bilan to'ldiradi. So'ngra guruhlar fikrlari umumlashtirilib, eng yuqori ballga arziydigan to'g'ri va mukammal javoblar tanlab olinadi.

SINDIKAT METODI

Guruh uchta kichik guruhlariga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur.

SKARABEY TEXNOLOGIYASI

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo'lib, u tinglovchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya tinglovchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

SWOT- TAHLIL JADVALI TEXNOLOGIYASI

SWOT termini inglizcha kuchli, kuchsiz, imkoniyat, havf so'zlarining bosh harflaridan tuzilgan. Bu texnologiyadan tashkilot yoki biror korxonaning kelgusidagi strategik rivojlanish mexanizmlarini tahlil etishda foydalanish qulay.

DAVRA SUHBATLARI METODI

Davra suhbatida ma'ruzachi o'qituvchi bosh tashkilotchi bo'lib qoladi. Davra suhbatlari ko'pincha tinglovchilarga tanish yoki yaqin mavzularda o'tkaziladi. Davra suhbatlari mavzulari, rejalari, savollari tinglovchilarga avvaldan bir necha kun oldin tarqatiladi.

Tinglovchilar uchun mustaqil tayyorgarlik ko'rishga, ularni bir-birlari bilan avvaldan o'zaro fikr almashishga, kutubxona, internetdan ayrim ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, kichik matn tuzish imkoniyati yaratiladi. Davra suhbatining afzalligi shundaki, har bir tinglovchi individual tayyorgarlik ko'radi. Har ikki tomon davrani o'tkazishga tayyorgarlik bilan keladi. Suhbatni o'qituvchi, goho lider tinglovchi olib borishi mumkin.

MUNOZARA METODI

Disput- bu ikki yoki ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki olib boriladigan bahsi,

munozarasi, masala talashuvidir. Disput mavzusi tayyorgarlik ko'rish uchun o'tkazishdan oldin tinglovchilarga ma'lum qilinadi.

Tinglovchilarga bilim berishga mo'ljallangan disputda kamida bitta rais va ikki guruhning har biridan bir nafardan so'zlovchi qatnashadi. Disputni ochuvchi birinchi tinglovchi qo'yilgan taklifni ma'qullab chiqsa, ikkinchisi unga qarshi chiqadi, ya'ni opponent bo'ladi.

So'zlovchilarga 10 minutdan, har ikki guruhdan ikkitadan ortiq bo'lmagan qo'shimcha qilishga chiqadigan tinglovchilarning har biriga 5 minutdan vaqt beriladi. Ikki marta so'zga chiqishga ruxsat etilmaydi. So'zga chiquvchilarning barchasi raisga murojaat etishadi va uning qarori qat'iy bo'lib, disputning mavzudan chetga chiqib ketmasligini nazorat qiladi.

MUNOZARA LEKSIYA METODI

O'qituvchi leksiya o'qiydi, auditoriyaning savollariga javob beradi va o'z navbatida tinglovchilarga savollar bilan hujum qiladi. Bunday leksiyalarda tinglovchilarning faolligi ancha yuqori bo'ladi. Tinglovchilar soni 20 tadan ortiq bo'lmaganda munozarali leksiya metodi an'anaviy leksiyalarga qaraganda afzal bo'ladi, chunki bunday holda o'qitishning kichik guruhlarda qo'llaniladigan metodlarini tatbiq etishga keng imkoniyatlar tug'iladi.

TARMOQLAR METODI (KLASTER)

Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo'lib u tinglovchilarni biror-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib tinglovchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravshan ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda tinglovchilarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

III. AMALIY MATERIALLAR MAZMUNI

1-Mavzu. Sharq filologiyasi yo‘nalishlarini: sharq qo‘lyozma manbalarini, tillarini va sharq mamlakatlari adabiyotlarini o‘rganish.

Reja:

1. Tilshunoslik tarixi, uning davrlarga bo‘linishi va sohalari.
2. Alisher Navoiyning ilmiy filologik merosi.
3. Alloma Mahmud Zamaxshariyning ilmiy-ma‘naviy merosi va sharq tilshunosligidagi o‘rni.
4. Sharq mamlakatlarda yuritiladigan til siyosati hamda xorijiy tillarni o‘qitish uslubiyati.

Tayanch so‘z va iboralar:

Tilshunoslik, mikrolingvistika, makrolingvistika, XIX asrning birinchi choragi, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston, qadimgi Rim, Ovrupo tilshunosligi, arab tilshunosligi, O‘rta Osiyo tilshunosligi, Vedalar.

Tilshunoslik tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, til va tafakkur, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, tilning jamiyatdagi o‘rni. Ichki tuzulish usullari va shu kabi masalalarni o‘rganadigan fandir.

Tilni tilshunoslikdan tashkari falsafa, mantiq kabi boshqa fanlar ham urganadi. Ma‘lumki, tafakkurga daxldor masalalar mantik ilmining mavzusidir. Shu tufa ili mantikchilar tafakkur Konuniyatlar bilan birga, fikrning tilda aks etishini urganmasliklari mumkin emas. Undan tashqari, til va tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan hodisadir, tafakkur tilda yashaydi, xar qanday nutq asosida esa tafakkur yotadi. Mantiq tilni ana shu yunalishda o‘rganadi².

Qadimgi Misr tilshunosligi tarixi u qadar keng o‘rganilgan emas. Chunki qadimgi Misrda lingvistika tizim sifatida tugal shakllanib ulgirmagan edi. Biroq Misrda yaratilgan yozma yodgorliklarda tilshunoslik bilan bog‘liq nihoyatda qiziqarli mulohazalar bayon qilingan. Misrdagi lisoniy tafakkur fira‘vinlarning ustunligini ta‘minlash maqsadida yuzaga kelgan. Xususan, eramizdan burungi III mingyillikda yaratilgan “Memfis falsafiy-diniy traktati”da tilning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ayrim fikrlar berilgan. Unda qayd etilishicha, Misrning yangi poytaxti Memfis shahrining bosh xudosi Ptaxning ustunligini tasdiqlash uchun til yaratilgan. Ptax dunyodagi barcha narsalarni yaratib, yakunda tilni yaratgandan so‘ngina o‘zida qoniqish hosil qilgan. Shu bois, tilga nisbatan xudolarga tegishli hodisa sifatida qaralgan. Misr tarixida yozuvning ijodkori va homiysi sifatida oy va aql xudosi Tot tan olingan. Misrliklar o‘zak va morfema masalalarida, shuningdek, tovushlarni unli va undoshlarga ajratishda anchayin oldin ketishgan. Buni ularning konsonantli ieroglifli yozuvidan ham bilish mumkin.

Qadimgi Misr dunyo tilshunosligi tarixida dastlabki onomastik lug‘atlarning vatani sifatida o‘rin egallaydi. Eramizdan burungi I mingyilliklarda yozilgan “Ierogliflar lug‘ati”, “Ramessey onomastikoni” kabi lug‘atlar ana shunday filologik asarlar sirasisidandir.

Eramizdan burungi III – I mingyilliklarda tilshunoslik fan sifatida Bobilda yuzaga kelgan. Bu yerda eramizdan oldingi III mingyillikda maktab ta‘limini yuzaga kelishi lingvistikani paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Maktab tizimida to‘g‘ri yozishga bo‘lgan ehtiyojlar bu yerda dunyo tilshunosligi tarixidagi ilk orfografik lug‘atlarning yaratilishiga olib kelgan.

Eramizdan burungi III mingyilliklarda Old Osiyo va Yer o‘rta dengzi bo‘ylarida yashagan xalqlarda tilshunoslik tasavvurlari yuqori darajada bo‘lgan. Bu zaminda yaratilgan ko‘plab yozuv sistemalari bunga shohidlik beradi. Bu borada finikiyaliklar ancha oldinga ketishgan edi. Bugungi rivojlangan yozuv tizimlari ana shu finikiyaliklar yaratgan yozuvlarning yuksalgan ko‘rinishidir. Finikiyaliklar tilshunoslikda, ayniqsa morfologiya sohalorida ildamlab ketishgan. Ular o‘n ikki so‘z turkumlarini farqlashgan.

Shunday qilib, til faqat Tilshunoslik emas, balki boshqa fanlar uchun xam o‘rganish sohasi sifatida namoyon buladi. Bu sohadan xar bir fan o‘z mavkeyini ajragib oladi. Urganish soxasini ajratib olish nuktai nazaridan tilshunoslikni ikki turga buladi: mikrolingvistika (kichik gilshunoslik) va makrolingvistika (katta tilshunoslik) ga ajratiladi.

Mikrolingvistika tilning faqat ichki, ya‘ni fonstik va grammatik tuzulishini, makrolingvistika esa, tilni boshqa fanlar bilan qo‘shib o‘rganiladi.

Makrolingvistika tilning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyot qonunlari tilning ijtimoiy mohiyatini uning tafakkur bilan muno-sabatini, til va boshqa signal tizimlari (sistemalari) orasidagi o‘xshashlik va fanlarni tilning tarqalishi (idealekt shaxsiy sheva) yangi til masalalari, kabi muammolarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda til ikkiga bir-birga zid dunyo qarash (ilm aslida shunday qarashlar natijasida reallashadi)-idsalistik va materilistik nuqtai nazardan ta‘riflanadi. Ongni birlamchi materiyali ikkilamchi deo biluvchi idealisgik olimlar til ga quyidagicha tarif beriladi.

«Til tafakkurni ifoda kiluvchi ishoralar majmuidir» (F.De Soseyur). «Til-odam onginging ishtirokisiz uning tashqi dunyoga nisbatan bo‘lgan mexanik harakatidir» (L.Blumfeld). «Til fikrni ifoda qilishga mo‘ljallangan. Talaffuz qilinadigan chegaralangan tovushlar birini to‘ldirsa ham tilning to‘liq ta‘rifi emas, chunki u tilning ijtimoiy mohiyatini ochib berolmaydi.

Olimlarning tilning kishilik jamiyatida tutgan o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatib, til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir deb ta‘riflaydilar. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, ularning ihtiyojlarini to‘la to‘kis bajaradi, garchand til o‘zgaruvchan xodisa bo‘lsa-da, u faqat o‘zining ichki ob‘ektiv qonunlari asosida rivojlanadi. Shu bilan birga shuni xam qayd

qilish lozimki, jamiyat bo'lmasa til xam bo'lmaydi; jamiyat tilni kundalik xayotida qo'llamasa, u (til) rivojlanmaydi. Demak, til va jamiyat doimo bir-birini taqazo etadi.

Shunday qilib, til o'ziga xos semasiologik tizim (sistema) -(ya'ni ishoraviy sistema) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muxim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan-avlodga madaniy tarixiy an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatiga o'xshaydi.

2. Tilshunoslik fani-lingvistika hozirgi darajaga yetgungacha uzoq, tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu - tabiiy bir xol. Chunki tilshunoslik fani xam boshqa fanlar singari yuk joydan paydo bo'lmagan. Uning yaratilishida xam o'tmishda yashagan va ijod etgan juda ko'p mutafakkirlarning ishtiroki bor. Ularning faoliyati tufayli fanga qo'shilgan ilmiy merosini e'tibor bilan o'rganish lozim.

O'tmishda ijod etgan tilshunoslarning, faylasuflarning ayrim fikrlari yoki ilmiy sestemalari hozirgi davr goyalariga mose kelmas-ligi, xatto zid bo'lishi mumkin. Birok bu xil ushunday merosni tarixiy fakt sifatida o'nutib yuborish uchun asos bo'la olmaydi. Uni tanqidiy yo'sinda o'rganish kerak.

Tilshunoslik fanining kadimgi eng muxim manbalari, asosan, ikki xil xududda, ikki xil madaniyat o'chogida yuzaga keldi. Bular kadimgi Xindiston, kadimgi Grekiya va Rimdir. Shuning uchun tilshunoslikning kadimgi davri kadimgi xind, qadimgi grek (qisman, latin) filologiyasini qamrab oladi.3. Tilshunoslik - ijtimoiy gumanitar fanlar qatoriga kiradi.

Chunki uning ob'ekti ijtimoiy ongni taxlil qilish, shu bilan birga

u yoki bu kishilik jamiyatining til xaqidagi farazlarini xulosalaydi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, tilshunoslik tilni psixologik omillar asosida xam taxdil qiladi. Tilshunoslik aniq, fanlar katoriga kirishi mumkinmi? Xa.-Chunki uning, (tilning) o'zgarmas qonunlari (kelishik qo'shimchalari, gram. kategoriyalari, so'z turkumlari va boshqalar) ham borki, ular kishilik jamiyatining tilga bulgan bir xil qarashini belgilab beradi. Shuning bilan birga, tilshunoslik qaysi tilning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganmasin, u (tilshunoslik) albatta bir xil tizimda, ya'ni matematik tizimda o'rganiladi: Masalan; ot so'z turkumi xamma tilda bir xil grammatik kategoriyalarga ega.4. Tilshunoslik inson tilining strukturasi, tarixiy taraqqiyotiga va funkkiyasiga xos bo'lgan qonuniyatlarni umumlashtiruvchi nazariy fandır. Nazariy fan sifatida u xususiy tilshunosliklarga ilmiy tadqiqot usullarining jami bulgan metodologiyasini belgilab beradi. Demak, tilshunoslik fani falsafa bilan zich boglangan. Tilning tabiati va tarixi xaqidagi umumlashtirmalar xam, tilshunoslik tarixi xaqidagi umumlashtirmalar xam biron - bir 'falsafiy maktab yoki oqimga taaluqli bo'ladi va unga suyanadi. Shuning uchun bu fan ij-timoiy fanlar singari ma'lum sinfga xizmat qiladigan fandır.

Tilshunoslik bir til yoki bir necha til guruhining qurilishi, usha tizim elementlariga doir qonuniyatlirning nazarda tutmasdan, barcha tillarga taaluqli bo'lgan umumiy xodisalar xaqida so'z yuritadi. Shuning uchun barcha tillar xaqida gap; borsaxam, faqat birlik sonda bulgan til termini qullanib, bu termin butun insoniyatniy aloqa vositasini umumlashtiradi.

Tilshunoslik alohida, mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi choragida (1816 yilda) fanlar olamiga kirib keldi. Shakshubhasiz, tilshunoslik ham boshqa qator fanlar kabi tadqiqotlar, tajribalar, izlanishlar, g'oyalar, kuzatishlar natijasi, «mahsul» sifatida o'zining alohida o'rganish ob'ektiga va tekshirish metodiga ega bo'ldi.

Qat'iy aytish mumkinki, jahon tilshunosligi fani ham shu kungi taraqqiyot bosqichiga etib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot davrini, «o'sish» davrini bosib o'tdi. U turli maktablar, oqimlar, ta'limotlar ta'sirida bo'ldi, olimlar tomonidan lisoniy hodisalar haqida aytilgan fikrlar qarama qarshiligiga, til hodisalari haqida yaratilgan juda ko'plab manbalarga «guvoh bo'ldi», shakllandi. Anig'i, tilshunoslik fani ham jahon fanlari sistemasida o'ziga xos va o'ziga mos doimiy mustahkam o'rin egalladi.

Tilshunoslik fanining qadimgi eng muhim manbalari, ta'limotlari, oqimlari, ilk bor, qadimgi Hindiston, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim mamlakatlarida maydonga keldi.

O'rta va yangi asrlarda esa til haqidagi fan Ovrupoda, Arabiston va O'rta Osiyoda taraqqiy qildi.

Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi Hindiston jahon tilshunosligi tarixida tilshunoslik fanining beshigi, markazi sifatida tan olinadi va umum tomonidan e'tirof etiladi. Bu-mutlaq haqiqat. Chunki til masalalariga bo'lgan qiziqish, tilga oid hodisalar bilan jiddiy va puxta shug'ullanish ilk bor Hindistonda - hind olimlari, filologlari tomonidan boshlab berildi. Ayni jarayonning boshlanishi dastavval sof amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. Aniqrog'i, 15 asr ilgari yozilgan qadimgi hind adabiy tili yozuvida - sanskritda yaratilgan qadimgi hindlarning diniy madhiyalari - Vedalar tili davrlar o'tishi bilan mamlakat aholisining so'zlashuv tilidan (prakritdan) farqlanib qola boshladi. Ya'ni qadimgi yozma yodgorliklar tili (yozma nutq) bilan so'zlashuv tili (jonli nutq) orasida ajralish, nomoslik, «ziddiyat» yuzaga keldi. Ushbu ziddiyatni, farqlanishni yo'qotish uchun hind olimlari qadimiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga, tadqiq qilishga, ularni ommaviylashtirishga jiddiy kirishdilar. Ular qadimgi Hindistonda alohida e'tiborga, hurmatga sazovor bo'lgan Vedalardagi ma'nosi tushunarli bo'lmagan so'zlarni aniqlab, ularning ma'nosini izohladilar, sharhladilar. Vedalar tiliga oid maxsus izohli lug'atlar tuzdilar, matnni fonetik va grammatik jihatdan tahlil qildilar. Xullas, Vedalar tilidagi so'z va jumlar ma'nosini, ularning aniq talaffuzini, shaklini saqlab qolishga bo'lgan qat'iy intilish qadimgi Hindistonda tilshunoslikning yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ldi. Qadimgi yunon tilshunosligi.

Qadimgi Yunoniston Ovrupo tilshunosligi fanining markazi hisoblanadi.

Faylasuflar va shoirlar vatani bo'lgan qadimgi Yunonistonda til masalalari dastavval faylasuflar tomonidan o'rganilgan.

Yunon faylasuflari til masalalarini o'rganish jarayonida tadqiqot muammolarini, yo'nalishlarini ham belgilab oladilarki, bu yo'nalishlar umumiy, nazariy, lisoniy - falsafiy muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Yunonistonda tilshunoslik yunon falsafasining etakchi qismi sifatida yuzaga keladi va bu sohada juda katta, salmoqli ishlar qilinadi.

Qadimgi Yunonistonda ham qadimgi Hindistondagidek matnlarni o'rganish, so'zlarni tahlil qilish, ularga izoh berish, mohiyatini ochish kabi masalalar fonetika, grammatika va leksika sohalari bilan jiddiy shug'ullanishga, shu yo'nalishlarda muhim tadqiqot ishlarini olib borishga sabab bo'ldi.

Yunon tilshunosligining taraqqiyoti ikki davrga bo'linadi:

1. Falsafiy davr.

2. Grammatik davr.

1. Tilshunoslikning falsafiy davri. Yunonistonda tilshunoslikning falsafiy davri ikki asr davom etadi. Bunda tilga falsafaning bir qismi sifatida qarash, til hodisalarining mohiyatini falsafiy jihatdan ochish va tushuntirish, taxminlar, xulosalar

chiqarish, g'oyalar yaratish ayni davrning eng muhim xususiyati hisoblanadi³.

Tilshunoslikning falsafiy davrida qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan deyarli barcha falsafiy maktablar, oqimlar, yo'nalishlar til masalalari bilan faol shug'ullanganlar. Fikr yuritilayotgan davrning o'ta dolzarb va eng muhim muam-molaridan biri so'z muammosi, so'zning tabiiy hodisami? yoki shartli hodisami? ekanligi haqidagi bahs, munozara bo'lib, bu masala atrofida fikrlar qarama-qarshiligi, faylasuflarning ayni masalani hal qilishda tarafma - taraf bo'lib, «jangga» kirishishi, tadqiqot ishlarini olib borishi qizib ketdi. Aniqrog'i, bu davrning asosiy, bosh masalalaridan biri so'z bilan ma'no orasidagi, predmet bilan uning nomi orasidagi munosabat masalasi edi.

Boshqacha aytganda, predmet bilan uning nomi o'rtasida qanday munosabat mavjud? So'zdagi tovush bilan ma'noning bog'lanishi qanday yuz beradi? Bu bog'lanish tabiat tomonidan beriladimi yoki so'zlashuvchilar tomonidan kelishilgan holda yuz beradimi? yoki ma'lum qonun - ko'rsatma bilan tayinlanadimi?, «muayyan urf - odat bilan bog'lanadimi? yoki odamlar tomonidan belgilanadimi. Ya'ni bu jarayon ongli, ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladimi? va boshqalar.

Tilshunoslikning falsafiy davrida so'z bilan predmet orasidagi munosabat masalasini hal qilishda Geraklit va uning tarfdorlari quyidagi g'oyani ilgari suradilar. Ular har bir nom o'zi anglatayotgan narsa, predmet bilan ajralmas aloqada, bog'lanishda bo'lib, nomlarda predmetlarning mohiyati namoyon bo'ladi, «ochiladi». Aniqrog'i, suvda daraxtlar, ko'zguda o'zimiz aks etganidek har bir nom o'zi ifodalayotgan predmetning tabiatini, mohiyatini aks ettiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Yana ham anig'i predmet bilan ularni anglatuvchi so'zlar orasidagi bog'lanish tabiat tomonidan berilgan bo'lib, bu bog'lanish tabiiy, zaruriy bog'lanish hisoblanadi. Xitoy tilshunosligi tarixi ikki ming yillik tarixni o'zida qamraydi. U XIX yuzyillikka qadar boshqa tilshunoslik maktablarining ta'siriga uchramasdan mustaqil ravishda rivojlangan. Xitoy tilshunosligi xitoy tilining qolipi asosida yuzaga kelgan. Xitoy tilshunosligida filolgiyaning uch tarmog'i yaxshi rivojlangan edi. Bular: So'zning talqini bilan shug'ullanuvchi *syungu*, ieroglifning etimologiyasi, tuzilishi bilan shug'ullanuvchi *grafemika* va so'zning talaffuzini o'rganuvchi *fonologiya* sohalaridir.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri grammatika xitoy tilshunosligida XIX asrning boshlarida yuzaga kelgan.

Eramizdan burungi V - III asrlarda Xitoy klassik falsafasining rivojlangan kezarida Konfusiy til falsafasi xususida qimmatli fikrlar aytilgan.

Xitoy lingvistikasi tarixidagi eng eski lug'at "Shi Chjou pyan" dir. Bu asr ieroglifni to'g'ri yozilishi ya'ni savodxonlikka o'rgatish uchun tuzilgan.

Xitoy tilshunosligi tarixida ilk izohli lug'at "Er ya" deb yuritiladi. Asarda so'zlar mavzui guruhlarga ajratib berilgan. Izohli lug'atlar qatorida eramizdan burungi I asrda yaratilgan "Szi szyu pyan" asarini ham qayd etish mumkin.

Dunyo tilshunosligida dastlabki dialektologik lug'at xitoy tilshunosligining mahsulidir. Eramizdan burungi 53 yilda yaratilgan "Fan yan" lug'atida Xitoyning turli mintaqalarida qo'llanilgan so'zlar jamlangan.

Xitoy leksikografiyasining eng buyuk asari "Sho ven" dir. Asarda xitoy tilidagi ierogliflar 540 guruhga ajratib beriladi.

Xitoy tilshunosligi ana'nalari keyinchali koreys va yapon tilshunoslik maktabini oyoqqa turishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar:

1. Tilshunoslik faniga ta'rif bering.
2. Tilga dunyo olimlari qanday ta'rif va izohlar berganlar?
3. Mikrolingvistika va makrolingvistika nimalarni o'rganadi?
4. Qadimgi Hindiston va qadimgi Yunoniston tilshunoslik maktablari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?

2-Mavzu. Sharqshunoslikni fan sifatida tadqiq etish, sharqshunoslik: uning ob'ekti va lug'aviy ma'nolari.

1. Sharq ilmida til tasnifiga oid qarashlar.
2. Sharq tillarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar.
3. Kelib chiqishi aniqlanmagan tillar.
4. Hozirgi zamon sharqshunosligida sharq tillarini o'rganish masalasi.

Tayanch so'z va iboralar:

Buyuk mutafakkir va alloma, «Muhokamat ul-lug'atayn», fonetik sistema, morfologiyaga, fe'lning orttirma nisbat shakli, tovush va harf munosabati.

O'rta Osiyoning XV asrning ikkinchi yarmidagi buyuk mutafakkiri, allomasi, she'riyat sultoni, o'zbek adabiy tilining homiysi va targ'ibotchisi Alisher Navoiy (1441-1501) hazratlari tilshunoslik tarixida ham yorqin iz qoldirgan ulkan siymolardan biridir.

Alisher Navoiyning lisoniy qarashlari, asosan, «Muhokamat ul-lug'atayn» (1499) asarida o'z ifodasini topgan.

Ikki til-o'zbek va fors tillarining qiyosiy (solishtirma) tahliliga bag'ishlangan ushbu asarda Alisher Navoiy turli til oilalariga mansub bo'lgan tillarning umumiy va farqli tomonlari, belgi-xususiyatlariga to'xtaladi, ularni tahlil qiladi, muhim ma'lumotlar beradi. Aniqrog'i, tillarni muhokama qilish orqali o'zbek tilining o'ziga xos jihatlari, adabiy-badiiy ijodda - asarlar yaratishda o'zbek tilining ham ustuvor, ulug'vor til ekanligini, shunga ko'ra fors tili bilan bema'lol raqobat qila olishini, hatto ayrim

³ CLASSICS & ORIENTAL STUDIES HANDBOOK. Michigan, 2011. <http://www.weblearn.ox.ac.uk/site/human/classics/degrees/handbooks> and http://www.orinst.ox.ac.uk/html/general/ba_classics_orientalstudies.html

o'rinlarda, tasviriylik imkoniyatlari nuqtai nazaridan esa undan ilgari keta olishini bayon qiladi, asoslaydi.

Kommunikativ tilshunoslik. Shveysariyalik mashhur olim F. de Sossyur ijodi bilan uzviy bog'langan strukturalizm oqimi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni o'tgan asrning 50-yillariga kelib bajardi. Bu oqimga mansub olimlar tilning ichki tuzilishi ustida namunali ishlar qilishdi. Ular ijodida tizim, tarkib, qatlam, allomorfizm, etalon til, til universalialari kabi tushunchalar har tomonlama o'rganilib chiqildi va ularning chegaralari ko'p jihatdan aniqlandi. Til va nutq dixotomiyasi (juftligi) masalasi ko'tarilib, ularning o'zaro bog'liqlik tomonlari va farqlari e'tirof etildi. Ayniqsa, til tizimiga katta ahamiyat berilib, uning tarkibiy bo'limlari ko'rsatildi.

Strukturalizm oqimining asosiy kamchiligi «til o'z ichida va o'zi uchun mavjud hodisadir» degan nazariyaning ilgari surilishi, natijada nutqni o'rganishga deyarli ahamiyat berilmaganligidir. Tilni o'rganish amalda ishlatuvchi odamlar faoliyatidan ajratib qo'yildi; muomaladagi til chetda qolib ketdi⁴.

Nutqda uchraydigan variantlar rasmiy ta'kidlanib, ularni tartibga tushirish masalalari yaxshi yoritildi, lekin ularning paydo bo'lish sabablari o'rganilmadi. Shunday qilib, til va odam orasidagi uzviylik, ular orasidagi bog'liqlik strukturalistlar nazaridan chetda qoldi.

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslik fanida sezilarli o'zgarish ro'y berdi, tilning invariant tizimini o'rganish o'z mavqeini asta yo'qota borib, til variantlarini o'rganishga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Endi tilning bevosita harakatdagi, muomaladagi ko'rinishi, unda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlashga kirishildi. Tilshunoslik fanida tilning bu tomonini o'rganish uning kommunikativ-pragmatik aspekti deb nom oldi. Tilning rivojlanishi kishilarning hayoti, ularning nutq faoliyatlari bilan bog'liq ravishda o'rganila boshlandi. Bu esa o'z navbatida tilshunoslikda bir qancha yangi ilmiy fan sohalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn tilshunosligi va lingvistik pragmatikani o'z ichiga olgan kommunikativ tilshunoslik shular jumlasidandir. Quyida biz bu masalalardan sotsiolingvistika va matn tilshunosligiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Matn tilshunosligi. Qayd qilinganidek, XX asrning 60-yillaridan boshlab tilshunoslik fanida burilish ro'y berdi. Tilshunoslik bu vaqtga kelib, til birliklari bo'lmish fonema, morfema, leksema (so'z), gaplarni o'rganishni gapdan kattaroq birliklarga bog'lab o'rganish zarurligini qayd etdi. Ularni mazkur fanda sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs va matn atamalari bilan atashdi. Sintaktik butunlik, xat boshi, diskurs tushunchalari turli tilshunoslar ishlarida turlicha ta'riflansa ham, biz ularni birlashtirib, bir mavzu bilan bog'langan gap yoki gaplar yig'indisi, deb umumlashtirishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda tilning eng katta birligi matn deb topildi. Shuni qayd etish kerakki, matnni bir butun birlik sifatida o'rganish rus tilshunoslari tomonidan XX asrning 30-yillarida boshlangan edi. Ular o'z asarlarida matnning o'ziga xos xususiyatlari borligini, tilning boshqa birliklaridan o'zining mayl xususiyatlari, shaxs ma'nosini ifodalashi, matndagi shaxs ma'nosi bilan muallif shaxsi orasidagi bog'liqlik, uzviylik borligini isbotlashga ko'p kuch sarflashdi. Boshqa horijiy mamlakatlar olimlari bu masalaga e'tiborni birmuncha keyinroq qaratdilar.

Psixologik tilshunoslik. Tilshunoslikning bu bo'limini barcha tillarda «psixolingvistika» deb yuritishadi.

Har bir fanning o'z predmeti bo'lganidek, psixolingvistikaning ham o'zi o'rganadigan predmeti bor.

Psixologik tilshunoslik fanining predmetini 2 qismga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

- hozirgacha ko'rilgan tilga oid masalalarni psixologiya nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish;

- sof psixologik tilshunoslik masalalari. Har qanday ilmiy ishda o'rganilayotgan predmetning mavhum modelini yaratmay kutilgan natijalarga erishish mumkin emas. Tilshunoslikda ham til va til birliklarining o'ziga xos modeli ishlab chiqilgan va shu model asosida ish yuritiladi. Tilshunoslar yaratgan modelning psixolog yaratgan til modeliga to'g'ri kelish-kelmasligini e'tiborga olishmaydi. Bu modellar bir-biridan farq qiladi. Chunki tilni psixologiya nuqtai nazaridan o'rganayotgan olimlar gapiruvchining nutq faoliyatini hisobga olishlari lozim: nutq faoliyati natijasida yuzaga keladigan matn ma'lum jarayonni, sistemani tashkil qiladi: yaratilgan matn jamiyatning boshqa a'zosi (yoki a'zolari) tomonidan qabul qilinadi; qabul qilishning o'zi ham ma'lum jarayonni, sistemani tashkil etadi. Bu jarayonlar inson psixikasi, uning ongi bilan uzviy bog'langan.

Tilshunoslikni tayyor matn(lar) qiziqtiradi. U bu mahsulotni imkoni boricha to'liq, har tomonlama tahlil qilish yo'lida uning taxminiy (faraz qilish yo'li bilan) modelini chizadi. Tekshirish nihoyasiga yetganda (nisbiy nihoya nazarda tutiladi), tilshunos dastlabki modelga yana qaytib, uni erishilgan natija

⁴ CLASSICS & ORIENTAL STUDIES HANDBOOK. Michigan, 2011. <http://www.weblearn.ox.ac.uk/site/human/classics/degrees/handbooks> and http://www.orinst.ox.ac.uk/html/general/ba_classics_orientalstudies.html

bilan qiyoslaydi; natijada uni (modelni) avvalgi shaklida qoldirishi mumkin yoki qo‘lidagi yangi tadqiqiy dalillar asosida dastlabki modelni tubdan o‘zgartishi, yoxud ba’zi tuzatishlar, o‘zgartishlar kiritishi mumkin.

Psixolog tilshunoslar modeli o‘zining o‘ta mavhumligi bilan tilshunoslarnikidan farq qiladi. Chunki psixolog tilshunoslar inson bosh miyasida sodir bo‘ladigan nutqni yaratish jarayoni hamda uni qabul qilinish jarayonini ishlab chiqishlari lozim. Demak, psixolog tilshunoslar tomonidan yaratiladigan modelda ana shu bosh miyadagi matnni yaratish va uni qabul qilish tizimi o‘z aksini topishi kerak. Bu modellarning to‘g‘riligi, hayotiylikining birdan-bir ko‘rsatgichi – ular har jihatdan (fonetik, grammatik, leksik va mantiqan) to‘g‘ri matnlar yaratishi va bu matnlar tinglovchi tomonidan to‘g‘ri, gapiruvchi tomonidan belgilangan, ifodalangan tarzda tushunilishidir. Tilshunoslik bilan psixologiya chegarasidagi masalaning tafsilotlariga o‘tishdan oldin eng mukammal modellar ham gapiruvchi va tinglovchining ongida sodir bo‘ladigan jarayonni har tomonlama hisobga olishdan o‘zligini aytib o‘tish lozim. Insonning bevosita nazaridan yashiringan bosh miyaning bu faoliyati doimo ilmiy taxmin bilan bog‘langan bo‘lib, ilmu fan taraqqiyoti bu sistemani chuqurroq o‘rganilishiga yordam beradi, lekin uni tamomila bilib olishi imkonini bermaydi, chunki bosh miya tizimining izchil faoliyatini uzil-kesil modellashtirishning iloji yo‘q. Agar, L.Blumfeld aytganidek – til insonning tashqi muhitga nisbatan bo‘lgan mexanik reaksiyasi deb tushunilganda, nutqning sodir bo‘lish jarayonini modelga tushirish birmuncha yengillashardi. Lekin bu «mexanik reaksiya» faqat nutqning tug‘ilishi va uning zikr qilinish zanjirining bir kichik halqasidir. Mavhum tafakkur egasi bo‘lmish insonda yana xotira degan bir narsa borki, u nutqning paydo bo‘lishi va tushunilishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Inson tug‘ilganidan to voyaga yetguncha ko‘rgan, eshitgan, xis qilgan narsa-hodisalarni xotirasida saqlash xususiyatiga ega. Zaruriyat tug‘ilganda u o‘zining bu bitmas—tuganmas manбайдan keng foydalanadi. Qisqa qilib aytganda, xotira – insonning hayot tajribasidir, uning hayot tajribasi to‘g‘ri nutqiy matnlarni barpo qilishda va uni idrok etishda insonga bebaho durdona sifatida xizmat qiladi. Xotira mavjudligi tufayli insonlar ba’zi voqea va hodisalarning natijasidan, u qanday qilib sodir bo‘lganini tasavvur qilishlari mumkin. Shuni ham ta’kidlash kerak-ki, inson hamma vaqt ham ular bo‘lib o‘tgan voqealarning tafsiloti bilan qiziqib o‘tirmaydi; kishi hayotida ko‘p voqealar qaytarilishi tabiiydir. Ular odam ongida, uning xotirasida o‘z in’ikosini saqlab qoladi. Fanda bunday hodisani evristika deb yuritishadi. Demak evristika – bu inson xotirasida saqlanadigan hayot tajribalari asosida bizni o‘rab turgan muhitda ro‘y beradigan voqea va hodisalarga baho berish va ularga nisbatan xoh jismoniy, xoh aqliy (ruhiy) javobdir. Mantiqda evristikaga aks uslub sifatida algoritmlar namoyon bo‘ladi. Algoritmlar qunt bilan amalga oshiriladigan mantiqiy jarayon bo‘lib, uning yordamida odamlar voqea va hodisalarni ketma-ket, izchillik bilan tadqiqotlar yordamida o‘rganishadi. Bu yo‘l odamdan ko‘p kuch va vaqtni talab qiladi. Uning natijasi sarflangan mehnatni odatda oqlaydi, u aniq, ishonchli bo‘ladi. Evristikaga asoslangan xulosa ko‘pincha yuzaki taxminiy, noaniq bo‘ladi. Odam kundalik hayotida kuchni va vaqtni tejash prinsipiga amal qiladi. Shuning natijasi bo‘lsa kerak, u ko‘proq evristikaga murojaat qiladi va ba’zi xatoliklarga yo‘l qo‘yadi.

Evristik va algoritmik uslublar biz ko‘rayotgan masalaga bevosita aloqador. Tilshunoslik tomonidan ishlab chiqilgan modellar o‘z xususiyatlari bilan algoritmik modellardir, chunki ular odamning gapirish, nutqiy faoliyatini ko‘zda tutadi. Psixolingvistik modellar esa, o‘z mohiyati bilan evristikdir, chunki psixolingvistika insonning nutq faoliyatini uning boshqa aqliy va ruhiy qobiliyatlari bilan bir qatorda o‘rganadi.

Psixologik tilshunoslik uchta bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayonlar modelini, ya’ni «matn til tizimi» «mazmun matn» va «matn mazmun» jarayonlarini tushuntirib berishi kerak. Shulardan birinchisi tilni o‘zlashtirishga bevosita aloqasi bor.

Kognitiv tilshunoslik. Sotsiolingvistika yoki ijtimoiy tilshunoslik bilan $\overrightarrow{\text{uzviy}}$ bog‘langan tilshunoslik fanning yana bir yo‘nalishi - kognitiv tilshunoslikdir.

«Kognitiv» atamasining asosida «bilish» «idrok etish» degan ma’nolar yotadi (ingliz tilida «cognitive», rus tilida «познавательный»). Sh.Safarov fikricha, «Bilim olish va saqlash, uni amalda qo‘llash va uzatish manbai va, nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi kognitiv tahlil ob’ekti ekanligiga hech qanday shubha yo‘q... Bilimning mavjudligi tilning mavjudligidan. Tilning o‘zi esa kognitiv tizimning faoliyati mahsulidir, lisoniy tarkiblar tafakkur faoliyati natijasida shakllanadi». Shunday ekan «tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faoliyat asosida voqelanuvchi hodisadir».

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi va maqsadi til sistemasining insonlarning o‘rab turgan muhitni, insoniyat tarixi va madaniyatini, urf-odatlarini o‘rganishda, anglab olishdagi ishtirokini aniqlash, inson ongidagi mavjud tajribaga suyanib, to‘plangan bilimni ma’lum tartibga tushirish, uni boshqalarga uzatishda vositachilik qilayotgan tilning rolini tadqiq etishdir. Aynan shu jarayonni hozirda tilshunoslar lingvokognitiv faoliyat deb yuritishadi.

Kognitiv tilshunoslikning keng ko‘lamda shug‘ullanyotgan sohalaridan ba’zilari quyidagilar: kognitiv fonologiya, matnning real voqelikka munosabati, tillar grammatik sathining o‘rni va boshqalar.

Axborotning inson ongidigi faollashuv darajasi, uzatilajak axborot mazmuni yoki axborotni tinglovchiga yetkazilmoqchi bo'lgan ma'lumot muloqotga kirishayotgan shahs tomonidan talaffuz etilgan gap intonatsiyasining turi, urg'ularning joylashtirilishi orqali tinglovchiga yetkaziladi.

Matnning real voqelikka munosabati, ya'ni haqiqatga mos kelish-kelmasligi, ma'lumki absolyut haqiqat bilan gapiruvchining u to'g'risida berayotgan axboroti doimo bir-biriga mos kelmaydi, chunki inson turli sabablarga ko'ra (bilib-bilmasdan, ataylab) voqelikni o'zicha talqin qiladi, bunday xolatlar gapiruvchining oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq: gapiruvchi fakti o'zidek yetkazishi, qisman yo butunlay buzib ko'rsatishi uning aqliy imkoniyatlariga, ba'zan oldiga qo'ygan maqsadiga monan bo'lishi mumkin.

Tillarning grammatik tarkibi, uning tizimi kognitiv tilshunoslik nazaridan chetda qolmaydi. Voqelik va uni idrok etish makon va zamon tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Shunday ekan, muloqotga kirishayotgan shahs tinglovchini qiziqtirayotgan mavzuni (konseptni) unga yetkazishda gapirilayotgan tildan leksik birliklarni tanlaydi so'ngra mavjud grammatik kategoriyalar asosida ularni modellashtiradi va shu tariqa uni tinglovchi e'tiboriga havola etadi. Voqelik (mavzu) - uni tegishli tartibda grammatik jihatdan modellashtirish – tinglovchi tomonidan bu axborotni qabul qilinib, idrok etilish jarayoni ijtimoiy tilshunoslik, psixolingvistika va kognitiv tilshunoslikning o'rganish ob'ektlaridan biridir.

Aytilganlardan ma'lum bo'lishicha, dunyoni, bizni o'rab turgan muhitni, sodir bo'lgan, bo'layotgan voqea va hodisalarni bilish, idrok etish til faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. «Kognitiv tilshunoslik... inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitiv – tilshunos lisoniy xodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi».

U mazkur asarida tillarning kelib chiqishi, til va tafakkur orasidagi munosabat, so'z ma'nosi, so'zlarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, so'z yasalishi, morfologik kategoriyalar, fonetikaga oid-tovush bilan bog'liq qator hodisalar haqida chuqur fikr yuritadi, bunday hodisalarni atroflicha tahlil qiladi.

Navoiy asarda fonetik sistema haqida fikr yuritar ekan, ayni sistemaning qurilish a'zolari bo'lgan tovushlar haqida, tovushlarning artikulyatsion xususiyatlari haqida ma'lumotlar beradi, o'zbek tili tovushlarining qo'llanilishidagi o'ziga xosliklarini alohida qayd etadi.

Ushbu fonetik o'ziga xosliklar haqida prof. S.Usmonov va prof. A.Nurmonovlar o'z tadqiqotlarida bir qator ma'lumotlarni keltiradilar. Masalan, tovush va harf munosabati haqida fikr yuritilar ekan, ular bir-biriga hamma vaqt ham mos kelmasligi, bir harf bilan bir necha tovushni anglatish mumkinligi aytiladi. Anig'i, Navoiy eski o'zbek adabiy tilining unililar sistemasiga to'xtalib, o-ö, u-ü oppozitsiyasi asosida misollar keltiradi qiyoslang: ot (olov), öt (harakat); to'r (tuzoq), to'r (uyning to'ri); o't (yutmoq), o't (kallani o'tga tutib, tukini kuydirish). Shuningdek, birgina yey (s) harfi bilan uchta tovush: i, cho'ziq i va e tovushlari ifodalanishi qayd etiladi.

Qofiya masalasida o'zbek va fors tillari qiyoslanar ekan, bunda o'zbek tili imkoniyatlarining kengligi, bu jihatdan o'zbek tili fors tilidan ustun ekanligi bayon qilinadi. Anig'i aro so'zini saro, daro bilan ham, boda bilan ham, erur so'zini esa hur, dur bilan ham, g'urur, surur so'zlari bilan ham qofiya qilish mumkinligini, fors tilida esa bunday imkoniyat yo'q ekanligini ta'kidlaydi.

Xullas, Alisher Navoiy tovushni, hozirgi tilshunoslik nuqtai nazaridan baholashda, fonema sifatida olib, uning eng muhim xususiyati bo'lgan ma'no farqlash qobilyatiga ega ekanligini bayon qiladi.

Alisher Navoiy morfologiyaga oid fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy, yetakchi so'z turkumi sifatida, maqsadga to'la muvofiq, fe'llarga murojaat qiladi. Fe'l birliklarning ma'no jihatdan, shakl va qo'llanishi jihatdan eski o'zbek adabiy tilining o'zigagina xos, ya'ni forsiyda uco'ramaydigan xususiyatlarini, zukko tilshunos sifatida, puxta tahlil qiladi. Aniqrog'i, u fe'llarning nisbat bilan bog'liq tomonlariga alohida e'tibor berar ekan, fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shaklini, ko'makchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni qayd etadi.

Navoiy fe'lning orttirma nisbat shakli haqida fikr yuritar ekan, ayni nisbat tushunchasi-t qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini aytadi, qator misollar keltiradi. qiyoslang: yugurt, yashurt, chiqart2 va boshqalar.

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarining tilshunoslikdagi ahamiyati.
3. Alisher Navoiyning morfologiyaga oid fikrlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Kognitiv tilshunoslik haqida nimalarni bilasiz?

3-mavzu. Sharq filologiyasi masalalarini o'rganishda sharq falsafasi, sharq xalqlari tarixi va sharq mamlakatlari adabiyotining o'zaro aloqasi.

Reja:

1. Sharq va G'arb adabiy aloqalari tarixiga doir.
2. Badiiy adabiyot haqida ta'limot. Badiiy nutq.
3. Adabiy turlar va janrlar nazariyasi. Lirik tur va uning janrlari.
4. Adabiy oqimlar va san'at turlari.

Tayanch so'z va iboralar:

Abu Nasr Forobiy, "Hindiston" asari, "Saydana" asari, "Asbobi hudud al - huruf" asari, Sharq va G'arb adabiy aloqalari, badiiy adabiyot, lirik tur va uning janrlar

Abul Qosim Mahmud ibn Umar az – Zamaxshariy musulmon sharqida «Ustod ul-arab va-l ajam» (Arablar va g'ayri arablar ustoz), «Faxru Xvarazm» (Xorazm faxri) kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo'lgan o'rta Osiyolik allomalardan yana biri Mahmud az - Zamaxshariydir (1075-1143).

Mahmud az - Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida dunyoga keldi. Uning yoshlik yillari ilmu fan va madaniyat taraqqiy qilgan davrga to'g'ri keldi. Zamaxshariylar oilasi dindor, hurmatga sazovor ziyoli oilalardan edi. Shunga ko'ra u dastlabki bilimini Zamaxsharda o'z ota-onasidan oladi, xat-savodli bo'ladi. Mahmud o'z bilimini oshirish, ilm-fan bobida mukammal bo'lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so'ngra esa Buxoroga) yo'l oladi. Ushbu shaharlardagi madrasalarda o'zining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfaxon, Bog'dod, Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz va Iroq kabi ilm-fan, madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo'ladi, yetuk allomalardan, olimu fozillardan ilm-fan sirlarini o'rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo'ladi. Shunga ko'ra Mahmud az - Zamaxshariy o'z zamonasining buyuk allomasiga, ilm-fan homiysiga, dong'i ketgan mashhur kishisiga aylandi⁵.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshunoslik, lug'atshunoslik, jo'g'rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fikh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko'plab she'rlar yozdi.

Mashhur tarixchi Ibn al-Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi: «Xudo rahmat qilg'ur az - Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug'at bobida o'zgalarga misol (namuna) bo'ladigan alloma edi», desa, Misr tarixchisi ibn Tag'riberdi esa Mahmud Zamaxshariy «shayx, buyuk alloma, o'z davrining yagonasi, o'z asrining eng peshvosi va imomi bo'lgan», deydi.

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar:

1. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar.
2. Tilshunoslikdagi metod va yo'nalishlar.
3. Lirik tur va uning janrlari
4. Adabiy turlar va janrlar nazariyasi

4-mavzu. O'zbek sharqshunosligi: uning tarixiy ildizlari va hozirgi yo'nalishlari .

Reja:

1. Sharq filologiyasida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy Ibn Sinolarning tutgan o'rni va lisoniy qarashlari.
2. XX-XXI asrda yashab ijod qilgan o'zbek sharqshunoslarining sharq filologiyasi rivojiga qo'shgan hissalar.
3. O'zbek sharqshunosligining hozirgi yo'nalishlari: tugun va yechimlar.

Tayanch so'z va iboralar:

Sharq va G'arb adabiy aloqalari , G'arb adabiyotida Sharq adabiy motivlari, Dante ijodida fbu Ali ibn Sino va Beruniy obrazi, Gyote va Sharq adabiyoti.

XIX asr o'rtalariga kelib, Yevropada qiyosiy adabiyotshunoslik alohida fan sifatida taraqqiy topdi. G'arbda maxsus komparavistika (qiyosiy adabiyotshunoslik) maktablari yuzaga keldi. Ayniqsa, fransuz olimlari Pol Azar, Georg Brandes, Ferdinand Bryunet'er, Paul van Tigem adabiyotshunoslikni yangi kashfiyotlar bilan boyitdilar.

Ammo jahon adabiyoti tarixini yaratishga bel bog'lagan bu olimlar dunyoning faqat bir qit'asi, ya'ni Yevropa (shunda ham G'arbiy Yevropa) madaniyatini tan oldilar, xols. Boshqa xalqlar tomonidan bunyod etilgan ma'naviy boyliklar ular tadqiqotlaridan chetda qoldi. Necha asrlar muqaddam gullab rivojlangan muazzam Sharq madaniyati umumiy oqimda surib chiqarildi. Komparavistlar uni o'rganishga arzimaydi, deb hisobladilar. Bu mustamlakachilik, irqchilik siyosatini yurgizuvchi "evroposentrizm" oqimining ta'siri edi. Mustamlakachilik mafkurasini ifodalovchi mazkur oqim vakillarining aqidasi, Sharq xalqlari azaldan qoloq bo'lganlar; ularning bashariyat taraqqiyotida hech qanday ulushlari yo'q. Adabiyo ta'sir masalasida esa ular faqat Yevropaning Sharqqa ta'siri xususidagina gapirish mumkin, deb bildilar. Sharqni o'rganish, ularcha, etnografik ma'lumotlar to'plash hamda ekzotik jimjimadorlikni ko'rib, ko'zni quvontirishdan iborat. Sharq xalqlari madaniyatiga past nazar bilan qarash adabiyotshunoslargina emas, balki yevropalik faylasuflar, tarixchilar orasida ham birmuncha keng tarqalgandir. Jumladan, tarixchi FR. Shlosser: "sharq davlatlari mustabidlik (despotizm) hamda ierarxiya asosiga qurilgan. Din bu yerda hamma narsani o'z ta'siriga olganidek, urf – odat, adabiyot, mafkura, ahloq, hokimiyat tarzi va hato, san'at ham doimiy, o'zgarmas deb qaralgan. Ular o'z madaniyatlarining doim ana shunday turg'un bo'lishini xohlab keldilar, boshqalar ta'sirini qabul qidmadilar", - deb yozadi. G'arbda bunday qarashlar ko'p vaqtgacha hukmron aqida bo'lib keldi. Ular o'z madaniyatlarining Sharqdan kelib chiqqanligini zo'r berib inkor etdilar va jahon tarixini faqat Yevropa xalqlari tarixi tashkil etadi, deb tushuntirdilar.

Xalqlar orasiga fitna va adovat urug'ini sepuvchilar Sharq bilan G'arb azaldan bir – birlariga dushmandir, ular hech qachon qo'shilolmaydi, deb chiqdilar. Go'yo yaratilgan kundan boshlab dunyo Osiyo va Yevropa, ya'ni Sharq va G'arbgga bo'lingan emish... Ular fikricha, bu ikki qutb kishilari orasidagi kurash azaliydir va u bashariyat hayotining mazmunini tashkil etadi: chunki hayot ikkita qarama – qarshi kuchning tug'ilish va yemirilish, nur va soyaning kurashidan iborat.

Ammo Yevropa ilmu adab ahlining hammasi ham Sharqqa nisbatan bunday munosabatda bo'lgan emas. Dunyo barkamolligini birlikda ko'rib, Sharq xalqlari madaniyatini katta hurmat bilan G'arbda targ'ib etgan va etayotgan mutafakkirlar qarshisida biz burchlimiz, xususan, sharqshunos olimlarning bu boradagi xizmatlari bebahodir. Ularning g'ayrat – shijoati,

⁵ CLASSICS & ORIENTAL STUDIES HANDBOOK. Michigan, 2011. <http://www.weblearn.ox.ac.uk/site/human/classics/degrees/handbooks> and http://www.orinst.ox.ac.uk/html/general/ba_classics_orientalstudies.html

tinimsiz izlanishlar tufayli, Sharq adabiyotining ko'pgina yodgorliklari tadqiq etilib, Yevropa tillariga tarjima qilindi. Yevropa kitobxonlari tarjima vositasida Sharq xalqlari ijodiyoti bilan tanishar ekanlar, bundan ming yillar muqaddam Osiyo ko'ksida yetuk madaniyat barpo etilganligi, teran ham nozik insoniy tuyg'ular, ulug' gumanistik g'oyalar baralla kuylangan yuksak adabiyot yaratilganligining guvohi bo'ladilar. Bugina emas, Sharq adiblari asarlari g'arbliklar didi va zavqiga g'oyat mos bo'lib tushdi; Yevropa shoir, yozuvchilarning ijodiy kamolotiga samarali ta'sir ko'rgazdi. Ulug' nemis shoiri I. Gyote Xo'ja Hofiz devonini fon Hammer tarjimasida mutolaa etib, azbaroyi ta'sirlanganidan o'zini She'roz bulbulining muridi, deb e'lon qiladi. U Hofiz orqali butun Sharqqa bir umr muhabbat bog'lab, "G'arbu Sharq devoni"ni bitadi. Bu devonida u bor ovozi bilan dunyo birligini kuylaydi.

Buzildi G'arb, janub va Shimol,
Taxtu tojlar bo'ldi poymol.
Sen yiroqqa, kunchiqarga bor!
Unda qo'shiq, sevgi bor, may bor.
U tabarruk havoni shimir,
Va boshlagin yangidan umr...

("Hijron" she'ri. M. Shayxzoda tarjimas).

Gyote nazdida Sharq she'riyati, Firdavsiy, Sa'diy, Hofiz, Rumi ijodi – "Xizr chashmasi". U hamisha musaffo va ravon, undan hayot nafasi ufurib turadi. Bu ruh va ijod manbai, sevgi va qo'shiq saltanati...

Ulug' adiblarning Sharq adabiyotiga qo'yan e'tiqodi komparavist adabiyotshunoslar yuzini ham Sharqqa o'girdi. Endilikda xolis niyatli olimlar "evroposentrizm"ning g'ayri ilmiy mohiyatini ochib tashlash bilan komparavistikaning ob'ektiv ilmiy xulosalarga asoslangan yangi metodini ham ishlab chiqdilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insoniyat jamiyati taraqqiyoti doimiy yangilanish, o'sishni boshdan kechirgan. Har bir madaniy ko'tarilish o'zigacha bo'lgan yutuqlarni jamlagan, boyitgan va yangi – yangi oqimlarni birlashtirib, olg'a siljishda davom etgan. Taraqqiyot tarixiga Sharq va G'arb xalqlari navbatma – navbat hissa qo'shib kelganlar. Jahon xalqlari orasidagi iqtisodiy ham madaniy aloqa tobora rivojlana borgan va u hozirgi paytda yangi kuch bilan mustahkamlanmoqda. Ammo bunda zamonlar o'tishi bilan adabiy – madaniy bog'lanishlar xarakteri, mazmuni o'zgarib turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Jumladan, o'rta asrlar madaniyatini yuksaltirishda Sharq yetakchi bo'lib, tashabbusni o'z qo'lida saqlagan ekan, keyingi davrga kelib, g'arb oldinga o'tib oldi.

Atoqli sharqshunoslar A. Palasios, M. Pidal, A. Arberri, I. Krachkovskiy, I. Orbeli, N. Konrad, V. Jirmunskiy va boshqalar madaniyatlar rivojidadagi ana shu tarixiylik tadqiqiga alohida e'tibor berdilar. Tafakkur taraqqiysi va ijod silsilasida Sharqning alohida mavqei borligini barqaror etdilar. G'arbiy Yevropa adabiyotshunoslari tadqiqni asosan, Italiya Uyg'onish davridan boshlaydilar. O'rta asrlar va qadimgi dunyo adabiyoti ular e'tiboridan chetda qolib keldiki, bunday davriy chegaralanish ilimga xilofdir. Shunga ko'ra, akademik N. Konrad hamda V. Jirmunskiy jahon adabiyotini muayyan qit'alar, xalqlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy – iqtisodiy davrlar bo'yicha tahlil etishni taklif qiladilar. Ular fikricha, bir xil ijtimoiy – siyosiy sharoitda o'xshash mafkura, g'oya va qarashlar paydo bo'lishi, shu zaminda bir – biriga yaqin adabiy hodisalar, oqimlar shakllanishi, mushtarak obraz ham ohanglar (hatto, tasviriy usullar) yuzaga kelishi tabiiydir. Binobarin, bu ikki zabardast olim tipologik tadqiq usulini diqqat markaziga olib chiqdilar, uni qiyosiy adabiyotshunoslikning yetakchi metodi, deb hisobladilar. Ammo Sharq va G'arb adabiyotlarini qiyosiy o'rganishda asosiy e'tiborni tipologik o'xshash jihatlarga qaratgan ana shu ikki olim ham Sharq madaniyatining G'arbg'a ta'siri masalasiga kelganda, bir muncha ehtiyotkorlik bilan fikr yuritadilar. Chunonchi, V. Jirmunskiy XII – XIII asrlarda Andalusiya arab tilidan o'girilgan tarjimalarning Yevropa madaniyati uchun ahamiyatini qisqacha qayd etsa-da, Ispan olimlari Menendes Pidal hamda Anis Palasiosning Sharq she'riyati trubadurlar lirikasiga ta'sir etdi, degan fikrlarini shubha ostiga oladi. Biz ushbu kitobda keltirganimiz dalillar Sharqning G'arbg'a ta'siri masalasida har qanday shubhani asossiz ekanligini asoslashga qaratilgandir.

Sharq G'arb adabiy aloqalarida diniy tafovutlar, o'zaro siyosiy hamda mafkuraviy dushmanlik salbiy rol o'ynagan, degan qarashlar mavjuddirki, rus sharqshunos olimlari P. Grinser, B. Rifting tadqiqotlarida bunday qarashning ham asossiz ekanligi isbotlandi. Aksincha, turli dinlar va siyosiy maqsadlar to'qnashgan joyda o'zaro raqobat – madaniy jihatdan ilg'or bo'lgan raqib yutuqlarini tashna bir sur'at ila o'zlashtirib, undan o'zib ketishga intilish kuchli ekanligi tarixdan kuzatildi. Yana shunisi ham aniqki, chinakam gumanistik g'oyalar bayroqdori bo'lgan badiiy asar va san'at obidasi har qanday diniy aqidalardan ustun turib, davr sarhadlarini buzib o'tadi. Bejjiz emaski, tarixga nazar tashlar ekanmiz, aynan musulmon ham nasroniy xalqlar qo'shib yashayotgan doimiy muloqatda bo'lgan Andalusiya, Suriya, Iordaniya, Kavkaz, Volga bo'yi, Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli kabi jug'rofiy nuqtalarda Sharq G'arb adabiy – madaniy aloqalari g'oyat teran va mustahkam ildiz otgani, ustozu shogirdlik uzluksiz davom etayotganligini ko'ramiz.

Shunday qilib, Sharq G'arb adabiy – madaniy aloqalari juda katta davrni qamrab oluvchi ko'p tarmoqli sohadir. Talay tadqiqotlar bitilib, muhim muammolar yoritilgan esa – da, bu borada hali ham bir qadar umumiy hamda juz'iy masalalar puxta o'rganilmagan. Aksariyat tadqiqotchilar umumiy masalalar ustida mulohaza yuritish bilan cheklanmoqdalar Konkret davrlar, mamlakatlar, adabiyotlar, alohida yozuvchilar ijodi, muayyan asar ustida ana shu masala yuzasidan har taraflama teran olibirilgan tadqiqotlar benihoya kamdir. Vaholanki, Sharq G'arb munosabatlarini davrlantirish chunonchi: 1) eng qadimgi davrlardan ellin madaniyatigacha bo'lgan O'rta dengiz atrofidagi xalqlar madaniy aloqalari; 2) III – VI asrlardagi yunon – O'rta Osiyo, yunon – Eron, yunon – Hind aloqalari; 3) VIII – IX asrlarda yunon – Arab aloqalari; 4) XI – XII asrlarda Ispaniya orqali amalga oshgan Sharq – G'arb aloqalari; 5) XIV – XVIII asrlardagi aloqalar; 6) XIX asr madaniy aloqalari; 7) XX asr Sharq G'arb aloqalari kabi, har bir davr aloqalaridagi tipologik ayniyatlarni butun yaxlitligi bilan ochib berish kabi muhimdan – muhim vazifalar ham hali oldinda turibdi.

X – XI asrlar fan sohasidagi emas, badiiy ijodda ham yuksalish davri bo'lgan. Arab she'riyatni Abu Nuvos, Abu Tammom, Abu A'lo al – Maarriy, al – Buxuriy kabi ulug' shoirlar siymosida gullab turgan bir paytda, fors – tojik tilidagi adabiyot avval Buxoroda, keyinchalik G'azna shaharlarida taraqqiy topdi. Rudakiy, Daqiqiy, Abu Shukr Balxiy, Firdavsiy, Farruxiy, Anvari singari so'z san'at ustalari elga tanildilar. Bu davr shoirlari fan asoslaridan puxta xabardor bo'lganlaridek, olimlari ham poetik didi baland, aksariyati she'riyatda ham ustod allomalar edilar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom faoliyati fikrimizning yorqin dalilidir.

Abu Rayhon Beruniy o'z she'rlarini arab tilida bitgan. Bu nodir merosdan ayrim namunalar Yoqut Hamaviyning "Mu'jamul udabo" ("Adiblar jam'i") kitobida saqlanib qolgan. Yoqut hammasi bo'lib o'ttiz yetti baytdan iborat bir qasida hamda ikki – uch she'riy parchani keltirar ekan, ular baland saviyada bo'lmasa ham, Beruniy qalamiga mansubligi bilan tahsinga loyiqdir, deb ta'kidlaydi. She'rlar, asosan, avtobiografik xarakterga ega. Ularda Beruniy hayotining turli davrlari, uning o'zi to'g'risidagi fikrlari hamda atrofidagi kishilarga munosabati aks etgan. Qasidada olim dastlab, adolat, saxiylik, fanravnaqi boblarida shohlar bilan qilgan suhbatini keltirib, keyin zamondoshi Abulfath Bustiy madhiga o'tadi. Asar so'ngida o'zi va muxoliflari to'g'risida quyidagilarni bayon qiladi (mazmuni):

Ular (muxoliflar)fan oldida tiz cho'kmadilar va ilmiy munozaralarda qatnashmadilar. Hech kim ham (fanda) men kabi turli – tuman masalalar xususida to'xtalgan emas.

Mabodo meni bilmoqchi ekansiz, Sharq men haqimda hindlardan, G'arbda esa mening qanchalik qiyinchiliklar tortganligimni bilganlardan so'ra.

Mazkur parchadan ko'rinadiki, Beruniy qasidani umrining so'nggi yillarida, o'zining mashhur "Hindiston" kitobidan keyin ijod etgan. Bu davrda olimning shuhrati o'zi qasidada qayd etganidek. Sharqu G'arbg'a tarqalgan edi. Fanni egallash yo'lida mashaqat chekib, riyozat tortish, "unga sajda qilish, hayotni bag'ishlash lozim", deya ta'kidlagan olim, ilmida shu qadar nom qozonganligi, olamshumul shuhratiga qaramay, o'zini ortiqcha ko'klarga ko'tarib maqtashlariga yo'l qo'ymagan. Zamirida lagانبardorlik yotgan nosamimiy maqtovlar olimni g'azablantirgan. Jumladan, Abu Hasan degan shoir Beruniy madhida she'r aytganligi uchun olimdan quyidagi javobni olgan (mazmuni):

Ey, shoir, sen odob bilan mening oldimga kelib,

Meni (mening avlodimni) madh etmoqchi bo'lasan, lekin men dashnom etishga odatlanganman.

Sen mening naslu nasabimga chiroyli qofiyalar, yaxshi misralar bag'ishlaysan,

Vallohki (Xudo haqi), sen bu ishda haq emassan, chunki mening kim ekanligimni bilmaysan.

Otam "Abu Lahab" (yomon otliq kishi), odobsiz shayx (qariya),

Ha, onam ham "Hammolga tal hatab" (o'tin tashuvchi) dir.

Otam – sassiq chol, soqolida kamaqlilik namoyon,

Ko'zi va burnidan iflos suvlar oqib yuradi, uzun soqoli kir.

Sen otamning ahvolini bilmagandan keyin, bobomni ham yaxshi bilmaysan,

Darvoqe, otamni tanimagandan keyin, bobomni qaerdan bilasan!

Dashnom (kamsitish) va maqtov, ey Abu Hasan, mening nazdimda barobardir.

Xuddi sening hazlu jiddiyliging mening uchun barobar bo'lganidek,

Afv et, ota – onamning gunohlaridan o't, ularni tinch qo'y.

Bu ishing bilan sen, bamisoli shishani toshga urganday, (ovora bo'lasan).

Ammo bu parchani to'g'ridan – to'g'ri olimning ajdodlari to'g'risidagi ma'lumotlarga tirkab qo'yish g'ayri ilmiylik bo'lar edi. Chunki Beruniy zamonida ham o'zlari noqobil, iste'dodsiz aslzodalar, turli yo'llar bilan davlat tepasiga chiqib olgan johil shaxslar nasl – nasablari "ulug'" ligini pesh qilib, o'zlarini "sayid", "payg'ambar avlodi"dan deb kerilar, saroy shoirlari o'z navbatida ularni yettinchi osmonga chiqarib madh etardilar. Beruniy Abu Hasanga javob qaytarish bahonasida, buningdek shaxslar ustidan kuladi. Iste'dod nasl – nasabga bog'liq emas; bilim ota meros bo'lmaydi, balki mehnat-la qo'lga kiritiladi: quruqdan – quruq maqtanish kishini olim qilmaydi, degan mazmun yotadi she'r zamirida. Bunda Beruniy, Qur'onda keltirilgan bir rivoyat vositasida, so'z o'yini qiladi. Qur'onda keltirilishicha, payg'ambar kuyovlaridan birining otasi shakkokligi uchun la'natlangan va bu gunohi evaziga o'lganidan so'ng do'zax o'txonasiga posbon ("Abu lahab" – o't, olov otasi), xotini (ya'ni kuyovning onasi – N.K.)esa mazkur o'txonaga o'tin tashuvchi – "Hammola tal hatab" bo'lish jazosiga mustahiq etilganlar. Beruniy ota – onasiga ana shunday "la'natlangan" kishilar sifatini berish bilan ruhoniylar, payg'ambarzodalarni mazax etadi...

Atoqli sharqshunoslarimiz, jumladan, Beruniy asarlarini o'zbek tiliga o'girish ishida jonbozlik ko'rsatgan, olim merosidan saqlanib qolgan she'rlarini Birinchi marta to'la nashr ettirgan A. Rasulov ham yuqoridagi she'r mazmunidan xulosa chiqarib, Beruniyning ota – onasi oddiy xalq vakili, deb ko'rsatadilar. Bu fikrga qo'shilish kerak. Ammo, ulardan ayrimlarining: "Olimning ota – onasi, o'zi aytganiday, "ma'rifatsiz" kishi bo'lgan", – degan fikrlari haqiqatdan yiroqdir. Ular she'rda keltirgan mubolag'a va kinoyani to'g'ri ma'noda tushunib, yanglishadilar. Beruniy muxoliflarini fosh etish maqsadida, Qur'on hikoyatlaridan foydalanar ekan, bundan uning otasi savodsiz, onasi o'tin tashuvchi, degan aniq va qat'iy qarorga kelmaslik kerak.

Mazkur she'r bilan olim qasidasidan yuqoriroqda keltirganimiz misolni qiyosiy o'rgansak, Beruniyning bosh maqsadi dushmanlarga so'z kuchi bilan zarba berish ekanligi yana bir karra ayon bo'ladi. Olim o'z qarashlarini boshqa she'rlarida yanada davom ettiradi. Chunonchi, mana bu baytlarda "mehnatsiz shuhrat qozongan"lar qoralanib, ilm zahmatini tortganlar ulug'lanadi (mazmuni):

Mehnatsiz shuhrat qozongan odam,

Osoyishtalik, farovonlik soyasida yashaydi.

Yaxshi kiyinadi, rohatda (kun ko'radi),

Lekin ulug'lik kiymida ham u yalang'ochdir.

Bu kabi she'riy parchalar Beruniyning zamondoshlari, o'zi yashagan jamiyat haqidagi tanqidiy qarashlarni ham mardona ifoda etishi bilan qimmatlidir.

Alloma merosidan Yoqut keltirgan she'riy parchalar orasida ishq – muhabbat mavzusida bitilgan g'oyat go'zal va ixcham bir to'rtlik ham bor (mazmuni):

Sen mendan uzoqlashding va mening hayotim

avvallari yaxshi o'tgan bo'lsa, endi qayg'uli bo'ldi,

Sening maktubing g'am – alamdand, har qanday

Duodan ko'ra, meni ming marta yaxshiroq davolaydi.

Mazkur misollarning o'ziyoq, Beruniy arab she'riyatining turli shakllarida, mavzu jihatidan rang – barang va mazkur bo'larli darajada qalam tebratganligini ko'rsatadi. U she'riyatdan ijtimoiy qarashlarini ifodalash, g'oyaviy muxoliflariga qarshi kurash yo'lida foydalangan. Bu hol, sharqshunos M.Sal'ening Beruniy she'rni "ermak uchun yozardi" degan g'ayri ilmiy fikrini

o`z – o`zidan rad etadi.

Olimning mashhur “Osorul boqiya”, “Hindiston”, “Al-javohir”, “Geodeziya” (“Joyalarning chegaralarini aniqlash”), “Saydona” asarlari tarixi va etnografiya, astronomiya va geografiya, yer utzilishi, o`simliklar dunyosidan bahs yuritadi. Ammo, ularda ilmiy muhokamalar, xilma – xil javdallar, geometrik misollar, formulalararo she`riy parchalar, mashhur shoirlar nomlari ham tez – tez uchrab turadi. Binobarin, Abu Rayhon Beruniy g`oyaviy – estetik bahra olish, xalqlarning badiiy tafakkur mevalarini o`zlashtirish bilan birga, adabiyotdan ilmiy hujjat, fan uchun zarur dalil manbai sifatida ham foydalangan. O`zi keltirgan she`rlarda tasvirlanmish voqea – hodisalalar, fikr va tushunchalarni konkret fan talabi asosida izohlab, shu o`rinda she`rga baho ham berib o`tadi. Olimning “Al-javohir”, “Saydona” kitoblari bu jihatdan she`riy misollarga g`oyat boyligi bilan qimmatlidir. Jumladan, qimmatbaho toshlarning xususiyatlarini tadqiq etuvchi “Al-javohir” asarida saksandan ortiq shoirning 740 misra she`rini muayyan fikrni dalilash uchun iqtibos (sitata) tarzida keltirgan. Bu holni 40 – 50 shoir asarlaridan namunalar keltirgan “Osorul boqiya”, “Saydona” asarlarida ham ko`ramiz. Olim keltirgan she`riy parchalaridan ayrim taxminlar, tabiiy hodisalarga xilof o`rinlarni ko`rsatar ekan, bu holni adabiyotning o`ziga xosligi nuqtai nazaridan izohlashga intilgan. “Shoirlar, - deydi u, - tabiatdagi narsa – hodisalarning hamma vaqt ham aniq xususiyatlarini tasvirlashga qiziqmaydilar, balki ularni kishilar tasavvuridagi holatiga ko`ra qalamga oladilar”. Ko`rinadiki, Beruniy adabiyotni xalq hayotining in`ikosi, uning tafakkuri mevasi, deb tushuntirgan. Alloma tomonidan X asrdayoq bayon etilgan g`oyat muhim mazkur fikr izohi xususida keyinroq batafsil to`xtalamiz.

Adabiy asarlardan ilmiy dalil sifatida foydalanish Beruniyning zamonida va undan keyinlarigacha ham an`ana xarakterida yashab kelgan. Bu holni Al – Kindiy, hamza Isfahoniy kabi olimlar asarlarida ham ko`ramiz, hatto, zamondoshimiz akademik I. Krachkovskiy ham qadimgi arab geografiyasini tushuntirar ekan, folklorga murojaat etganligi bejiz emas. Bizning ulug` allomamiz ham shu yo`sin o`zidan oldin o`tgan hamda zamondosh tabiiyotshunos, adabiyotshunoslarning badiiy ijoddagi qarashlarini tanqidiy nazardan o`tkazadi. U keltirgan misollar orasida alohida misra, baytdan tortib, butun boshli she`rlargacha bor. Ular mavzu va mazmun jihatdan xilma – xil. Ko`p hollarda birgina so`z isboti uchun qator shoirlardan misollar keltiriladi, o`zaro qiyoslanadi.

Olim asarlarida tilga olingan shoirlar soni bir yuz ellikdan ortiqdir. Ko`pchiligi arab shoirlari bo`lsa ham, ular orasida Yunon, Rim, O`rta Osiyo va Eron adiblari ham anchagina. Beruniy asarlarida arab adabiyotining Abu Nuvos, Imrul Qays, Farazdaq, Zurumma, Abu Tammom, Al – Buxturiy singari klassiklaridan keltirilgan ko`pdan – ko`p misollar bilan birga, nomlari unchalik mashhur bo`lmagan va hatto, keyinchalik unutilib ketgan mualliflar she`rlaridan ham namunalari uchraydi. “Al – javohir” kitobida islomgacha yashab ijod etgan o`nlab arab shoirlari, jumladan, Sharqda Majnun nomi bilan mashhur Qays ibn Mulavvah saxiylikda nomi dunyoga doston Hotam at – To`iy, Ibn Sa`d ijodidan parchalar keltirilganligi biz uchun hayratomuz yangilikdir.

Al – Beruniy shoir va adiblarni diniy e`tiqodlari, milliy yoxud irqiy belgilariga ko`ra ajratmaydi. Bashariyatni aqlu idroki, insoniylik darajasiga qarab baholagan ulug` olim, iste`dod sohiblarini – ular qaysi xalqdan, qachon yetishib chiqqanliklaridan qat`i nazar – hurmat bilan tilga oladi. Musulmon ulamolari islomdan keyin yashab, Muhammad dinini qabul qilgan, uni kuylagan shoirlarnigina tan olgan bir davrda, Beruniy singari ulug`, ilg`or mutaffakkirlarning islomgacha bo`lgan arab, fors, sug`d adiblari ijodidan foydalanishlari, ularni targ`ib etishlari zo`r jasorat namunasi edi. “Osorul boqiya”da Beruniy O`rta Osiyo, Eron, Hind xalqlari, qadimgi arablar, yahudiylarning ko`hna madaniyatini tadqiq etadi, ular mohiyatini tushuntiradi. Imrul Qays ibn Mulavvah kabi “johiliyat” davri (islomgacha bo`lgan davrni arab ulamolari shunday nomlaydilar – N.K) shoirlari she`rlaridagi ilg`or g`oyalarni yuksak baholaydi. Inson tafakkuri, aqli va iste`dodini, fan – ma`rifat rivojga hissa qo`shuvchi barcha turdagi ilmiy – badiiy meroslarni har qanday diniy hissiyotlardan yuqori qo`yadi.

Beruniy keltirgan mualliflar ijtimoiy mavqei va qarashlariga ko`ra bir necha toifalarga bo`linadilar. Ular orasida xalifalarni madh etib kun ko`rgan (Abu Nuvos, Al – Hanafiy kabi) shoirlar ham, xalq tomonidan turib, yuqori tabaqa vakillarini kalaka qilgan (Farazdaq, Bashshor ibn Burd singari) hajvchilar ham, adolat va ma`rifat kuychilari (Imrul Qays, Abul Farrosh, abu Zu`ayb, Abu Tammom) ham bor. Qator she`riy parchalarda xalqning og`ir ahvoli, ocharchilik va tabiiy ofatlar oqibatida yuz bergan vayronaliklar, podsho ham xalifalar zulmi, saroy ahlining iflos axloqi, islom imperasiga qarshi turli joylarda ko`tarilgan ozodlik kurashlari aks etgan. Chunonchi, “Osorul boqiya”da Beruniy quyidagi tarixni keltiradi: “Bani Xanifa qabilasi Musaylimadan ilgari, johiliyat davridan danagi olingach hurmodan sanam yasab, ko`p vaqtgacha unga ibodat qilar edilar. Keyin ular ocharchilikka yo`liqib, sanamni yeb qo`ydilar. Shunda Bani Tamim qabilasidan bir kishi bunday dedi (mazmuni):

Bani Xanifa o`zidagi qadimgi ochilik,

Va faqrlikdan o`z rabbini (xudosini) yeb qo`ydi”.

Kitobning boshqa bir joyida “payg`ambarlik da`vo qilgan” kishilar – Zardusht, Moniy, Mazdak, Muqanna, Bahofarid to`g`risida hikoya qilayotib, ulardan biri Abu Sumoma xalqni xalifalikka qarshi qo`zg`atgan uchun xalifa Xolid ibn Valid tomonidan qatl etilganligi, xalq unga motam tutib, marsiyalar to`qiganidan ma`lumot beriladi: “Bani Xanifa shoirlaridan birining mana bu so`zi o`sha marsiyalardandir (mazmuni):

Ey, Abu Sumoma! Senga achinaman –

Bulut orasida chiqqan quyoshdek eding”.

Beruniy muayyan she`rning nima munosabat bilan yozilganligi, uning avtobiografik xarakteri to`g`risida ham g`oyat qiziqarli faktlarni keltiradi. “Al – javohir” kitobida hikoya qilinishicha, Xorun ar – Rashidning chiroyli bir kanizagi bo`lib, ismi Xolisa (musaffo) ekan. Bir kuni xalifa tomonidan Abu Nuvosga berilgan in`om saroyda ushlab qolindi. Shoir shu munosib bilan (mazmuni):

Mening she`rlarim sizning eshigingizda yo`qolib ketdi,

Go`yo gavhar Xolisada yo`qolganidek.

degan. She`rni eshitgan kanizak xafa bo`lib, Xorun ar – Rashidga arz qiladi. Xalifa shoirni chaqirib, dashnom beradi. Shoir o`zini oqlash uchun, bu g`iybatchining xatosi, chunki u “ayn” (ع) ni “hamza” (ء) o`qigan, deydi. (Gap she`rda keltirilgan arab so`zi ustida borayapti. Bu so`zi shu ko`rinishda “yo`qolish” ma`nosini “hamza” bilan kelganda esa yaltirash ma`nosini beradi). Shoir shu yo`l bilan jazodan qutulib qoladi.

Umuman, Beruniy asarlarida u yoki bu munosabat bilan davr xarakterini namoyon etadigan, turli tabaqa kishilarning

yashash sharoitlarini izohlovchi she`r va hikoyalar ko`plab keltiriladi. Xususan, u mehnat ahlining og`ir ahvoliga achinadi. "Al - javohir"da olim dengiz tubidan gavhar qidiruvchilarning ayanchli taqdirini tasvirlaydigan bir qancha she`rlarni keltirib, batafsil sharhlashdan tashqari ularning savdogarlar tomonidan talanishlari voqeasini alam bilan hikoya qiladi.

X asr islom dunyosida ikkita adabiyot mashhur edi – arab va fors adabiyoti. Binobarin, Beruniy arab adabiyotining qadimgi davrlaridan o`z zamonigacha o`tgan shoir va adiblar ijodidan xabardor bo`lgan, ularni ilmiy tahlil etgan, asarlaridan foydalangan.

Ammo ulug` olim samoniylar davlati sharofati bilan qayta tug`ilib, taraqqiy topgan fors tojik tilidagi adabiyotdan juda kam foydalangan. Ehtimol, bizgacha yetib kelmagan va juda ko`proq ijtimoiy – tarixiy harakterdagi asarlarda u, bu adabiyot haqida batafsil fikr yuritgandir. Biroq hozircha mavjud asarlarda shu mavzudagi durustroq ma`lumotni uchratmadik. Aslida bunday Beruniy fors tilidagi adabiyotdan tamom behabar, degan xulosa chiqarish yaramaydi. Tarixiy – ijtimoiy faktlarga ham xamisha obektiv yondashgan alloma ularni haqqoniy uzoqlash barobarida, otashin vatan parvar sifatida, O`rta Osiyo va Eron madaniyatini kamsituvchilarga qarshi shavqatsiz ko`rash olib borgan. U arab bosqinchilarining mahalliy madaniyatlarini barbod etishdagi yovuzliklarini g`azab bilan qalamga olgan. Jumladan, "Osorul boqiya" asaridagi birgina manabu jumлага e`tibor bering: "Qudayba ibn Muslim al – Boholiy xorazmliklarning kitoblarini halok etib, bilimdonlarni o`ldirib, kitob va daftarlarini ko`ydirgani sababli ular savodsiz qolib, o`z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo`ldilar" ("Osorul boqiya").

Beruniy arablardan ancha ilgari yaralib, taraqqiy topgan O`rta Osiyo va Eron xalqlari yozuvi, ilmi, adabiyoti va san`atining keyinchalik arab madaniyati shakllanishidagi katta ta`siri xususida qayta – qayta ta`kidlaydi. Olimning "Osorul boqiya" kitobida qadimgi Sug`d va Xorazm, Xuroson va Eron tarixi, ilmi hamda madaniyatini o`rganishga alohida e`tibor berilgan. O`lkan adabiyot yodgorlik "Avesto", sug`dlar kitobi "To`bo`sto" haqida mif va afsonalar, turli folklor namunalari o`ldirilgan fikrlar zikr etilgan. Chunonchi, Zardo`sht va uning kitobi "Avesto" xususida Beruniy qo`yidagi qimmatli ma`lumotni beradi: "podshoh Doro ibn Doro xazinasida Avestoni o`n ikki ming qora mol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron etib, ular xizmat qiluvchilarni o`ldirgan vaqtda uni ko`ydirib yuborgan. Shuning uchun usha vaqtdan biri Abestoning beshdan uchi yo`qolib ketgan. Abesto o`ttiz "pask" (qism) edi, majusiylar qo`lida o`n ikki "pask" chamasi qoldi".

Boqinchilar qachon va qaysi tomondan kelganlaridan qat`iy nazar faqat ofot keltirdilar. O`lar talab ketgan moddiy boyliklar o`rni to`ldirildi, vayronalar obod etildi, ammo, ular yondirgan madaniy yodgorliklarni qayta tiklab bo`lmaydi. U xalqlarimiz tarixidagi eng bitmas, og`ir jarohatdir...

Ma`lumki, Eron shohlari tarixi dastlab tahlaviy keyinchalik yangi fors (dariy) tili hamda arab tillarida bitilgan. O`nlab "Shohnoma"lar yuzaga kelgan. Ular orasida yorqin adabiy polotno darajasiga ko`tarilganlari ham ko`p bo`lgan. "Osorul boqiya"da ana shunday "Shohnoma"lardan bir nechtasi tilga olib o`tiladi. Ular bir – birlari bilan chog`ishtirilib, tanqidiy nazardan o`tkaziladi. Chunonchi, Beruniy odamning paydo bo`lishi to`g`risidagi eroniylar afsonalarini qiyoslab yozadi: "Shoir Abu Ali Muhammad ibn Ahmad al – Balxiy "Shohnoma" asarida insoniyatning boshlanishi haqidagi bu rivoyatni biz hikoya qilgandan boshqacharoq bayon etgan. U o`z xabarlarini Abdulloh ibn al – Muqaffa, Muhammad ibn Ahmad Barmakiy, Hoshim ibn Qosim, Shopur shahrining donishmandi Bahrom ibn Mardonshoh va Bahrom ibn mihron al-Isfahoniyning "Siyarul mulk" kitoblarida to`g`irlab, keyin majusiy Bahrom al – Hiraviy aytganlariga solishtirganligini da`vo qilgan".

Abu Ali Balxiyning bu asari nasr yoki nazmda, Firdavsiydan oldin yo keyin yozilganligi ham noma`lumdir. Ammo, Beruniydan ayonki, undagi voqealar bayoni firdavsiy "Shohnoma"sidan katta farq qiladi. Muhammad al – Balxiy Kayumarsni yer yuzidagi Birinchi odam deydi. Uning ham hayoti afsonalarga boy. Firdavsiy esa uni Birinchi Eron podshosi sifatida tasvirlaydi. Kayumarsning Ahriman dev bilan kurashi naql etilsa – da, bunda realistik tasvir vositalaridan samarali foydalanilgan.

Mahmud G`aznaviy saroyida ijod etgan atqoli shoir Anvariyning "Vomiy Uzo" dostonini, fors folklori namunalari "Qosim us – surur va Aynul hayot", "Xurmuzdyor va Mehryob", "Bomiyoning ikki sanami", "Dodmoh va Kiromidux", "Nilufar", kabi asarlarni arab tiliga o`g`irganligi ham Beruniyning fors adabiyotini yaxshi bilganligidan dalolatdir. Chindanam, u islomgacha bo`lgan fors adabiyotidan yaxshigina xabardor edi. "Er yuzidagi mamlakatlarni dastlab taqsim etgan pok afredun bo`lgan. U xusravlar (ya`ni Eron podshohlari) o`g`illaridan biri quyidagi she`rida aytganidek, mamlakatlarni o`z avlodlari o`rtasida taqsim etgan (mazmuni):

O`z zamonimizda mamlakatimizni kunda ustida
go`sht burdalagandek tasimladik..."

"Osorul boqiya"da yana Xorazm, Sug`d hamda Eron bayramlari, xususan, navro`z kunlariga bag`ishlanib she`rlar yaratilganligi, ular to`planib, kitob holida tarqatilganligi ham xabar qilinadi.

Aytish kerakki, Beruniy asarlarida keltirilgan she`rlar arab tilida bo`lsa – da, bu she`r mualliflarining hammasi ham arab shoirlari emas. Ular orasida Eron, O`rta Osiyo, Xuroson va hatto, Vizantiya, Ispaniyadan yetishib chiqqan, ammo, arab tilida ijod etgan shoirlar anchagina. "Al - javohir" kitobida nomlari zikr etilgan Hamza al – Isfahoni, Abubakr ibn al – Husayn Ko`hisoniy, Abul Qosim ibn Bobak Jurjoniy, Mansur Muvarrid Forisiy, Al – Gado`iriy, Bashshor ibn Burd, Abu Mansur as – Saolibiy, Abubakr Xorazmiy, Al – Xotibiy ibn Nasrovayh Samarqandiy singari ko`pgina shoirlar ham arab, ham fors tilida ijod etganlar. Aksariyati Beruniyga zamondosh mazkur arabiy navis shoirlarimizsan`ati ularning yuksak iste`dod sohibi bo`lganliklaridan darak beradi. Ular arab she`riyati taraqqiyotiga, so`zsis, ulkan ulush qo`shganlar. X asrda yashagan mashhur shoir va olim Abubakr Xorazmiydan keltirilgan quyidagi baytlar bizni tasdiqlay qolsin (mazmuni):

Men seni esladim, yulduzlar orasida go`yo gavha,
Donolari firuza dalada sochilganday bo`lgan bir paytda:
Ular (yulduzlar) parcha – parcha bulutlar orasidan xuddi
Yonayotgan arfaj daraxti tutuni orasidan sachrab
chiqqan uchqunlarday yaltiraydi.

Abubakr Xorazmiy hayoti ham ijodi to`g`risida tarix va tazkiralarda yetarli ma`lumot saqlanib qolmagan. Ammo, u o`z davrining atqoli tabiyotshunos, iste`dodli shoir ekanligi ma`lum. Beruniy uning ilmiy hamda ijodiy faoliyatini yuksak baholaydi. U kitoblarida Abubakr Xorazmiy she`rlaridan namunalar keltiradi, ularning poetik mazmuni, badiiy yuksakligidan zavq – shavqqa to`lib hikoya qiladi. Shoirning nafis baytlari, murakkab san`at yaratish yo`lida tabiat unsurlari xususiyatlaridan mohirona foydalanganligini qayd etadi. Shunisi quvonchlik, Markaziy Osiyo arabiy navis shoirlari arab she`riyati an`analari doirasida ijod

etgan boʻlsalar – da, ularning asarlarida mahalliy xalq ruhi, turmush tarzi barq urib turadi. Taassufki, bu shoirlar ijodi hozirgi adabiyotshunosligimiz diqqat markazidan hamon chetda qolib kelmoqda. Endilikda mashhur klassiklarimiz bilan birga, arabiynavis ajdodlarimiz hayoti va ijodini ham izchil oʻrganish ularni tarjimada oʻzbek kitobxoniga yetkazish adabiyotshunosligimizning kechiktirib boʻlmas vazifalaridandir. Beruniy asarlari bu borada Birinchi va bosh manbalardan biri xizmatini oʻtashi tabiiy.

Yunon fani va madaniyatini oʻzlashtirishga yoshligidanoq bel bogʻlagan Beruniy, dastlab, Yunon tilini puxta oʻrganadi. Natijada, qadimgi yunon shoir va olimlari asarlarini aslidan oʻqib, bahra topadi.

Yunon fanining arab, umuman, musulmon dunyosi madaniyati taraqqiyotiga taʼsirini Beruniy oʻz asarlarida qayta va qayta qayd etadi. Beruniy yunon olimlari asarlarining arabcha tarjimalaridan ham foydalangan, albatta. Tarjimaga murojaat etganida olim buni maxsus taʼkidlaydi. Ayrim hollarda qilgan tarjima darajasidan bahs yuritib, asliga chogʻishtiradi va nuqsonlarini koʻrsatib oʻtadi.

Yunon olimlari kitoblariga u dastlabki eʼtiborli manba, deb qaraydi. “Osorul boqiya”da yunoniston tarixi, madaniyati, ilmi toʻgʻrisida alohida toʻxtalib oʻtganidek, boshqa kitoblarida ham keng murojaat etadi. Xuddi arab sheʼriyatidan foydalanganidek, yunon shoirlari asarlaridan ham ilmiy fakt sifatida foydalanadi. Bu jihatdan Beruniy ulugʻ Gomer asarlariga alohida hurmat va eʼtiqod bilan qaragan.

Akademik I.Krachkovskiy “Gomer va Al – Beruniy” maqolasida, “Hindiston” kitobida keltirilgan bir necha xarakterlari misollarni “Odisseya” va “Iliada” dostonlariga qiyoslash vositasida, Beruniy Gomerning oʻlmas asarlarini aslidan oʻqigan, degan xulosaga keladi.

Chindan ham, ulugʻ vatandoshimiz “Hindiston” kitobida Omirdan deb keltirgan misollarning ikkitasi “Iliada” va bittasi “Odisseya”dandir. Kitobda hindlar tasavvuridagi ilohiy mavjudotlar makoni yetti qavat osmon tasviri bayon etilgach, daliliga oʻtiladi: «... va shoir Omir deydi: “Sen osmonni xudolarning adabiy musaffo makoniga aylantirding. Uni shamollar silkitolmaydi, yomgʻir yuvolmaydi, qorlar mahv etolmaydi; ammo, unda, agar uni berkitadigan bulutlar boʻlmasa, ajoyib soflik bor”» (“Hindiston”). I. Krachkovskiy, bu iqtibos “Odisseya”ning VII qoʻshigʻidagi Olimp togʻi tasviriga toʻgʻri keladi, deb koʻrsatadi (mazmuni):

Dedilarki, Olimpda xudolar istiqomat
qiladigan abadiy mustahkam.

Makon bor: u shamollardan silkinmaydi,
Yomgʻir uni yuvmaydi.

Va unda qor ham bor, faqat osmon

Bulutsiz yoyilgan, yorugʻlik oqarib tarqalgan.

Beruniy keltirgan ikkinchi iqtibos Gomer poemasi tasvirlariga yana ham yaqinroqdir. Hindlar inmon sezgilarini besh unsur – osmon, shamol, olov, suv va yer bilan bogʻlab izohlar ekanlar (osmonni eshitish va eshittirish xususiyatiga ega deb tushunganlar). Beruniy ularning bu taʼlimotlari fanga toʻgʻri kelmasada, mazkur qarash yunonlarga ham mavjudligini aytib, fikrining isboti uchun Gomerdan quyidagi misolni keltiradi: “yunonlarning shoiri Omir deydi: “Etti kuyning egalari soʻzlaydilar va bir – birlariga chiroyli ovoz bilan javob beradilar”. U bunda yetti sayyorani nazarda tutgan” (“Hindiston”, oʻsha sahifa). I. Krachkovskiy fikricha, Beruniy bunda zikr etgan yetti sayyorani yetti muza deb tushunmoq kerak. Shunda jumla, “iliada”dagi quyidagi misraning aynan tarjimasi boʻlib chiqadi.

Muzalar bir – birlariga chiroyli ovoz bilan
kuylab javob berar edilal. (“Iliada”, I, 604)

Al – Beruniyning Gomerdan keltirgan uchinchi iqtibosi quyidagicha. U hindlar va yunonlarning ilohiyot haqidagi ayrim tasavvurlarini muqoyasa etarkan, yunonlar ham baʼzan falak gumbazlarini xudolarning nomi bilan belgilab tilga oladilar, leydi va yozadi: «... chunki shoir Krates falak gumbazini Zevs deb ataydi va Omir ham aynan shunday degan: “Chopilgan qor parchalari Zevsdan tushgani kabi”» (“Hindiston”). Beruniy keltirgan mazkur jumla “Iliada”da quyidagicha (mazmuni):

Qor, Zevsdan, xuddi kesilgan parchalarday
Zich uchib kelmoqda. (“Iliada”, XIX, 357)

Akademik I. Krachkovskiy maʼlumotlariga qoʻshimcha ravishda, shuni aytish lozimki, Beruniy Gomer asarlariga boshqa kitoblarida ham murojaat etgan. Olim “AS - Sin” (“Geodeziya”) kitobida qadimgi Misr shaharlaridan biri Meyisning dastlabki nomi Fiva ekanligi koʻrsatib, uni quyidagicha dalillaydi: “Shoir Omir, yangi davr kishisi, Misr madaniyati kurtaklari haqida gapirib, Misrni (yaʼni Meyisni – N.K.) oʻz sheʼrlarida Fiva deb ataydi”. Yana Beruniy dastlabki asarlaridan “Osorul boqiya”da shoirning tugʻilgan yili, yashagan davrini koʻrsatib, uni atoqli arab shoiri Imrul Qays bilan tenglashtiradi: “Afrotokovus podshohligining qirq ikkinchi yil bir yuz oltmish yettinchi kunida, arablarning Imrul Qaysi singari ilgʻor yunon shoiri Omirus tugʻilgan”.

Alloma, asarlarida yana boshqa yunon shoirlari (jumladan, Kars nomli shoir) ham tilga olinadi, ularning sheʼrlaridan namunalar keltiriladi. “Hindiston” asaridagi sheʼriy vazn tihliligiga bagʻishlangan bobda, hatto, yunon sheʼriyatining baʼzi jihatlari ochib beriladi: «Yunonlarning kitoblaridan tushunishimga koʻra, ular sheʼr oyoqlarini belgilashda hindlar yoʻlidan borganlar. Jolinus oʻzining “Qatojanus” kitobida shunday deydi: “Menekratus yuzaga chiqargan turli shirlar vositasida tayyorlangan dorini Demokrates vaznga tushurilgan uch misrali sheʼrda tavsif etgan”.

Maʼlum boʻladiki, Beruniygacha ham yunon olimlari sheʼriyatdan ilmiy xulosalarni bayon etishda foydalanganlar. Bu usul, Beruniy qayd etganidek, yunonlardagina emas, hindlar, arablar, sugʻdilar va xorazmliklarda ham keng qoʻllanilgan. Sheʼriy shakl bilimni oson oʻzlashtirish, xotirada uzq saqlanishiga imkon tugʻdirgan. Koʻchmanchi arablar, astronomiyani avloddan – avlodga yetkazib kelganlar. Aytish kerakki, hatto, XX asr boshlarida bizda ham til va tilshunoslik, adabiyotshunoslik, astronomiyaga oid tushunchalarni bayon etuvchi sheʼriy kitoblar yaratilib, ular bolalarni oʻqitishga moʻljallangan edi.

Alqissa, yuqoridagi misolni Beruniy yunonlarning ilmni bayon etishdagi sheʼr imkoniyatidan foydalanishlarini koʻrsatish uchungina keltirgan emas. Bundan maqsad yunon sheʼriyat tuzilishining hind sheʼriyatiga yaqinligini koʻrsatishdir. Demak, Beruniy Gomer asarlarinigina emas, balki butun yunon sheʼriyatini yaxshi bilgan, oʻziga xos xususiyatlarini chuqur tushungan, boshqa xalqlar sheʼriyati bilan oʻxshashliklarini ochgan.

Arab xalifaligiga 632 yilda asos solingan bo'lib, uning hududiga Arabiston yarim oroli, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Shimoliy Afrika, Ispaniya, O'rta Osiyo va Kavkazorti mamlakatlari kirar edi. Bu xalifalik mo'g'ullar tomonidan bostirilgunga qadar (1258 yilgacha) ana shu katta territoriyaga hukmronlik qildi. Xalifalik turli elatlardan tashkil topgani bois uni boshqarish g'oyatda og'ir edi. O'zaro ichki ziddiyatlar kuchaygan, xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketgan edi. Bu esa xalifalikning XIII asrga kelib mayda qismlarga bo'inib ketishiga olib keldi. Natijada idrisiylar (789-926), ag'labiylar (800-909) singari dastlabki davlatlar qaror topdi. Eron va Movarounnahrda esa tohiriylar (821-873), safforiylar (867-1495), somoniylar (819-1005) singari mustaqil davlatlar paydo bo'ldi.

Xalifalik hukmronligi davrida islom dini kuchaydi. Arab tili din va fan tiliga aylandi. Katta hududdagi ilm ahllari qaysi elatdan bo'lishidan qat'iy nazar diniy va ilmiy asarlarni arab tilida yozadigan bo'ldi. Buning natijasida butun dunyoda arab madaniyati, ilm-fani deya shuhrat topgan madaniyat va ilm-fanga arablardan tashqari boshqa xalq vakillari ham o'zlarining ulkan ulushlarini qo'shdilar. Ular safida Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy va boshqa ko'plab ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz.

ABU NASR FAROBIY (873-930)

Markaziy Osiyoning yirik mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiydir. Forobiy o'z davrida mavjud bo'lgan barcha ilmlardan bahramand bo'lishga intildi va hatto bu yo'lda katta yutuqlarga erishish maqsadida Bag'dod, Damashq, Halab, Harron kabi arab sharqining juda ko'p shaharlariga sayohat qildi, borgan shaharlarida olimlar bilan tanishdi, ular bilan suhbatlashib, ular ilmidan bahramand bo'lishga intildi.

Shuning uchun ham allomaning nomi al-Kindiy, ar-Roziy, ibn Sino, Beruniy, ibn Ro'shd singari ulug' mutafakkirlar qatorida faxr ila tilga olinadi. Farobiy melodiy 873 yilda Aris daryosining Sirdaryoga quyiladigan Forob (O'tror) qishlog'ida tug'ilgan. Dastlabki savodini shu yerda chiqargan Abu Nasr keyinchalik Shosh, Samarqand va Buxoro shaharlarida tahsil oladi. Arab xalifaligining taraqqiy etgan shahri, xalifalik markazi Bag'dodda tahsilni davom ettirgan. Umrining so'nggi yillari Halab va Damashq shaharlarida kechdi. 930 yilda Damashqda vafot etgan.

Abu Nasr Forobiy til, tilshunoslik, adabiyot va adabiyotshunoslik, poetika va ritorikaga tegishli bir qancha asarlar ijod etgan. U bu mavzuda "Sharh kitob-al-xitoba li Aristutilos" ("Aristotelning "Ritorika" asariga yozilgan sharh kitobi"), "Kitob al-alfoz va al-huruf" ("lafz - so'zlar va harflar haqida kitob"), "Kalom laxu fi ma'no ism al-falsafa" ("Falsafa nomining ma'nosi haqida"), "Kitob fi al-xitoba kabir, ishru majalladan" ("Ritorika haqida yigirma jildlik katta kitob"), "Kitob fi sinoat al-kitoba" ("Yozuv san'ati haqida kitob"), "Kalom laxu fi ash-she'r va al-qavofiy" ("She'r va qofiyalar to'g'risida so'z"), "Kitob fi al-lug'at" ("Lug'atlar haqida kitob"), "Kitob fi ixso iqao" ("Ritmlar tasnifi haqida kitob") kabi asarlar yozgan. Bu asarlarda shoir, tilshunos, adabiyotshunos Forobiy siymosi namoyon bo'ladi.

Farobiyning asarlarida tilshunoslikning falsafiy masalalari markaziy o'rinni egallaydi. Jumladan, hissiy va idrokiy bilish, umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa dialektikasi xususida o'zining "Falsafatu Aristutalis" asarida diqqatga sazovor fikrlarni bayon etadi. Olimning fikricha, bilish insonning mohiyatini tashkil etadi. Bilishdan maqsad esa haqiqatga erishishdan iboratdir. Har qanday bilish o'zini qurshab turgan olamdagi narsalarni kuzatishdan boshlanadi. Chunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o'zining tabiiy asosidan oldin bo'lishi mumkin emas. Bu fikrlar V.Gumbold fikrlariga hamohangligini kuzatish mumkin.

Farobiy o'zining gnoseologik ta'limotida konkret borliqdan umumlashmalarga, abstrakt tafakkurga, ideal dunyoga borishni tavsiya etadi.

Farobiy inson ongining ikki turli bo'lishini ko'rsatadi: 1) ichki (intuitiv) ong; 2) tashqi (hosil qilingan) ong. Birinchisi tabiat tomonidan berilgan bo'lsa, ikkinchisi esa tabiatdan maqsadga ko'ra olinadi. Olim shunga muvofiq tarzda, inson bilimini ham ikkiga ajratadi: 1) tug'ma bilim; 2) o'qish va tajriba asosida hosil qilingan bilim.

"Falsafatu Aristutalis" asarida hozirgi struktur tilshunoslikning glossemantik yo'nalishida markaziy o'rinni egallovchi o'zgarmas va o'zgaruvchan birliklarning zidlanishi haqidagi fikrlarning ildizlarini uchratish mumkin. Olim bu xususda shunday yozadi: "Beadad ziddiyatlar bir-birlarini almashtirib turadilar. Ushbu tanovublarda (almashinib turishlarda) bitta o'zgaraydigan doimiy narsa bor. U ushbu tanoviblarni saqlab turadi va ularga singib ketadi. Narsalar bir-biriga ergashib va o'zgarib turganlari holda, doimiy bo'lib keladigan narsani "Javhar"(substantsiya), almashinib va o'zgarib turuvchi narsalarni "Oraz" (aksidentsiya) deyiladi". Olimning bu fikrlari tasavvuf falsafasiga ham asos bo'ldi va ular bu ikki tushunchani "zot" va "tazo'hir" atamallari bilan nomladilar.

Abu Nasr Forobiy Aristotelning "Ritorika" asariga yozgan sharhida so'z turkumlarini ot, fe'l, harf (bog'lovchi) deb uch guruhga ajratadi. Bu narsa uning so'z ma'nolari, tovushlar tahlili, yozuv tizimi, uslubiyat haqidagi fikrlarida ham o'z ifodasini topgan.

Abu Nasr Forobiy har bir so'z ifodalovchi tushuncha, tasavvur haqida fikr bildirib shunday yozadi: "Bordi-yu agar o'shanda u kishiga biror narsaning o'zini so'z bilan tavsiflab berilsa bormi, unda o'sha so'z-muloxazalarda ishlatiladigan har bir narsa ichida yaxshilik va yomonlik adolatsizlik yo tubanlik va yo bo'lmasa xalollikni tasavvur qilganiga uxshab keladi. Bas shunday ekan, xayolga kelgan so'zlardan ko'zatilgan maqsad ham eshituvchini uning xayoliga kelgan narsani qilishga undashdan iborat bo'ladi".

Farobiyning tilshunoslikka oid fikrlari "Fanlar tasnifi haqida so'z" asarida o'zining yorqin ifodasini topgan. Asarning birinchi qismi tilshunoslik faniga bag'ishlangan. Unda tilshunoslikning bir qator asosiy bo'limlari, ularning ma'nolari va o'rganish manbalari xususida so'z yuritadi. Farobiy so'z ma'nolari xususida fikr yuritir ekan, so'z ma'nosiga ko'ra ikki turli bo'lishini ko'rsatadi: 1) sodda so'z; 2) murakkab so'z. Odam, hayvon singari so'zlarni sodda so'zga kiritisa, Bu odam hayvondir tushunchasini murakkab so'z deb ataydi.

Farobiy otlarni ikkiga ajratadi: atoqli va turdosh otlar. Zayd, Amr singari ismlar atoqli otga, odam, hayvon, ot singarilar turdosh otlar ekanligini qayd etadi.

Tilshunoslik fanining mundarijasi xususida so'z yuritir ekan, ularni olti bulimga ajratadi:

Sodda so'z haqidagi fan.

So'z birikmalari haqidagi fan.

Sodda soʻz qonunlari haqidagi fan.

Soʻz birikmalari qonunlari haqidagi fan.

Yozuv qonunlari va toʻgʻri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan.

Sheʼr tuzildishi qoidalari haqidagi fan.

Soʻz birikmasi haqidagi fan maʼlum xalq tilida uchraydigan nutqning qismlarga boʻlinishini bilish, mashhur notiqalar, shoirlar yaratgan nutq turlarini bilish bilan shugʻullanadi.

Sodda soʻz qonunlari haqidagi fan, avvalo, nutq tovushlari (harflarni), undosh tovushlarning paydo boʻlish oʻrnini, unli tovushlar va ularning xususiyatlarini, soʻzga qoʻshimchalar qoʻshilganda roʻy beradigan fonetik oʻzgarishlarni, soʻzning fonetik modeli, sodda va qoʻshma soʻzlar, yasama soʻzlar namunalari, ot va feʼllarning oʻzgarishi, talaffuzi qiyin soʻzlar va ularning talaffuzini yengillashtirish yoʻllarini oʻrganadi.

Soʻz birikmasi qonunlari haqidagi fan ikki qismdan iborat: 1) ot va feʼlning oxiri (qoʻshimchalari); 2) soʻz qismlarining qoʻshilish qoidalari. Soʻz oldiga qoʻshiladigan, soʻz oxiriga qoʻshiladiganlar, oʻzgaradigan va oʻzgarmaydigan soʻzlarga boʻlish. Otlar va feʼllarning oʻzgarishi kabi masalalarni oʻrganadi.

Soʻz birikmalari qoidalari haqidagi boʻlimda soʻzlarning qanday qoʻshilish qoidalari va hukm bildirishi oʻrganiladi, soʻzlarning qoʻshilish turlari aniqlanadi. Qanday qoʻshilish chiroyli ekanligi koʻrsatiladi.

Yozuv haqidagi fanda yozuv qoidalari oʻrganilishi, sheʼrning tuzilishi haqidagi fanda esa sheʼr oʻlchovlari, har bir sheʼr qanday tovushlardan va boʻgʻinlardan tashkil topganligi, toʻliq va notoʻliq oʻlchovlar, qaysi oʻlchov yoqimli va chiroyli ekanligini oʻrganishi qayd etiladi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, Farobiy tilshunoslikning fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya, stilistika singari boʻlimlari hamda ularning oʻrganish obʼektlari xususida soʻz yuritadi.

Abu Nasr Forobiy oʻzining "Sheʼr va qofiyalar toʻgʻrisida soʻz" nomli asarida bir xil tovushlar bilan tugallanadigan soʻzlar, lafdosh soʻzlar, oʻzak va qoʻshimchalar qofiyasi nomi bilan ataladigan qofiya haqida maʼlumot beradi. Qofiya misra oxirini eslatish bilan ritmning shakllanishiga muhim hissa qoʻshadi, - deb koʻrsatadi.

Abu Nasr Forobiy turli tillarni oʻrganish bilan ham shugʻullandi. Masalan, u tibbiyot va mantiq ilmini xristian vrachi Yuxanno ibn Xaylon Kunnoiydan, hikmat va yunon tilini xristian Abu Bashar Mattodan oʻrganadi. Forobiy 70 tilni oʻrgangan va u tillarda bemalol soʻzlasha olgan.

Abu Nasr Forobiy oʻz asarlarida tillar va ularning lugʻatlari haqida maʼlumot beradi. U falsafa soʻzi maʼnosi haqida shunday yozadi: "Falsafa yunoncha boʻlib, arab tiliga chetdan kirgan soʻzlardandir. Bu soʻz ularning tillarida filosofo deb aytiladi. Uning lugʻaviy maʼnosi - xikmatni yoktirish demakdir. Bu soʻz yunon tilida "filo" bilan "sufiyo" soʻzlaridan tarkib topgan. "Filo" deganda yoqtirish, sevish tushuniladi; "sufiyo" deganda esa xikmat, donolik tushuniladi. Faylasaf soʻzi falsafadan olingan, bu yunonlarning tilida "filasufus" deyiladi. Bu oʻzgarish yunonlarda ildizdan boʻladigan oʻzgarish sanaladi. Ularning tilida buning maʼnosi xikmatni sevish demakdir. Ular bu iborat bilan xayotdan va umr kurishdan maqsad xikmatni maʼqullashdan iboratdir deyishadi.

Abu Nasr Forobiyning tilshunoslik, umuman filologiya sohasida ijod qilgan asarlari koʻp zamonlar oʻtishiga qaramay, insonlarni soʻzni sevish kabi olijanob fikrlardan qaytarmadi, balki kelajakda katta-katta ishlar qilish va bunday ishlarni amalga oshirish uchun kuch-gʻayrat koʻrsatishga umidvorlik baxshida etadi.

Uchinchi ming yillik boʻsagʻasida oʻrta asrlarda Sharqda yuzaga kelgan ilmiy, madaniy va maʼnaviy qadriyatlariga boʻlgan qiziqishning oshib borayotgani bejiz emas. Zero, oʻrta asr sharq mutafakkirlarining boy ilmiy merosi mazmun mohiyatini yangicha yondashuv asosida chuqur tahlil etish, hozirgi glabollashuv davrida ushbu bebaho merosni ommalashtirishga qaytadan kuchli turtki berish kishilik taraqqiyotining ehtiyojlariga javoban maydonga chiqmoqda.

Sharq jugʻrofiy tushuncha sifatida dunyoning ikki yirik qutbidan birining nomini ifodalash bilan birga u qadim kezlardan buyon koʻplab xalq va elatlarning betakror madaniyati hamda oʻziga xos sivilizatsiyasini aks ettiruvchi makon oʻlaroq dunyo taraqqiyotida alohida mavqega ega. Mustaqillik yillarida ilm-fanning barcha tarmoqlari kabi sharqshunoslik ham zamon talablariga mos ravishda rivojlanish yoʻliga kirdi. Bu boradagi dastlabki muhim qadam Vatanimiz istiqloli arafasida – 1991 yili 15 iyulda Prezidentimiz Islom Karimovning Qaroriga binoan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tashkil etilishi bilan bogʻliq, albatta. Mamlakatimizda sharqshunos kadrlarning yangi avlodini tayyorlash, Sharq xalqlari tili, tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodi boʻyicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, shuningdek, Sharq mamlakatlari bilan xalqaro munosabatlarni yoʻlga qoʻyish hamda rivojlantirish ushbu Qarordan koʻzlangan asosiy maqsadni tashkil etadi. Bu Vatanimiz sharqshunosligi takomili va istiqboli uchun juda katta imkoniyatlarni yaratib bergan tarixiy hujjat boʻldi. Qolaversa, Prezidentimiz kelajakni koʻrib imzolangan ushbu Qaror bilan yurtimizda oʻzining teran ildizlariga ega sharqona taʼlim va tarbiya anʼanalarini uzluksiz davom ettirish, shu bilan birga sharqshunoslik ilmlarini oʻqitishni tubdan qayta koʻrib chiqish uchun asos zamin yaratdi.

Oʻtgan davr mobaynida institutda Sharq va Gʻarb mamlakatlari tillarini mukammal oʻzlashtirgan, Sharq mamlakatlari madaniyati, tarixi, falsafasi, iqtisodiyoti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, xalqaro siyosati haqida chuqur bilimlarga ega boʻlgan, zamon talablariga javob bera oladigan malakali sharqshunos mutaxassislarini tayyorlash, sharqshunoslikning turli qirralarini oʻrganish boʻyicha fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish izchil yoʻlga tushdi. Hozirga kelib institut kichik bir fakultet doirasidan soha boʻyicha mintaqadagi yagona va nufuzli oʻquv, ilmiy muassasaga aylandi.

Bugunga kelib taʼlim oʻchogʻida saboq chiqarayotgan 2000 dan ortiq talabaga oʻz sohasining yetuk bilimdoni boʻlgan 300 ga yaqin professor-oʻqituvchi dars berib kelmoqda. Ularning 30 dan ziyodi fan doktori – professorlar, 100 ga yaqin fan nomzodi – dotsent ilmiy darajasiga ega tajribali ustozlardir. Ular orasida dunyo sharqshunosligida oʻz ilmiy maktabiga ega boʻlgan Ashraf Ahmedov, Ahmadjon Quronbekov, Muhammadjon Imomnazarov, Qosimjon Sodiqov, Raʼno Xodjayeveva, Mirsodiq Ishoqov, Ozod Shomatov, Shamsiddin Kamoliddin, Baxtiyor Bobojonov, Shuhrat Yovqochev, Roiq Bahodirov, Ahad Xodjaev singari olimlarning borligi eʼtiborga loyiq.

Institut Yaponiya, Koreya, Xitoy, Angliya, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Misr, Hindiston, Pokiston, Indoneziya, Malayziya, Vetnam, Turkiya, Oʻmon singari qator davlatlarning nufuzli oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini oʻrnatgan. Ushbu doirada professor-oʻqituvchi, talabalar almashinuvi, ilmiy konferensiyalar, seminarlar oʻtkazish va xalqaro taʼlimni rivojlantirishga koʻmaklashuvchi boshqa yoʻnalishlarga ayri-ayri eʼtibor qaratilmoqda. Institut tala-

balaridan 87 nafari Xitoy, Koreya, Yaponiya, Indoneziyadagi yetakchi oliy ta'lim muassalarida ta'lim olayotgan bo'lsa, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Afg'oniston, Vetnam, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi davlatlardan kelgan talabalar institutda tahsil olmoqda.

Keyingi yillarda dunyoning ilg'or mamlakatlaridagi yuksalish xususiyatlari bizni bir masalada doimo e'tibor qaratishimiz zarurligini ko'rsatmoqda. XXI asr glabollashuv asri sifatida millatlarning o'zligiga chang solmoqda. Bu jarayonga qarshi tura oladigan yagona kuch milliy meros va qadriyatlar ekani hech kimga sir emas. Ma'naviyati butun xalqni hech qaysi kuch, yot mafkura, olamon madaniyati yo'ldan ozdira olmaydi. Shu jihatdan, 2014 yil 15-16 may kunlari Yurtboshimiz tashabbuslari bilan Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tmish avlodlarimizdan qolgan ulkan madaniy-ilmiiy merosning olamshumul ahamiyati, uni o'rganish masallarini o'rtaga qo'yish bilan birga mamlakatimizda sharqshunoslik ilmini yangi sifat bosqichiga olib chiqish yo'lidagi ulkan odim bo'ldi.

Ayniqsa, Yurtboshimizning konferensiyaning ochilishida so'zlagan nutqi diyorimiz va chet el ilmiy jamoatchiligi uchun tarixiy voqelik bo'ldi. Prezidentimizning nutqi o'tmishning buyuk yutuqlari bilan zamonaviylikning uzviyligi va uzluksizligi, an'analar va innovatsiyalar uyg'unligi g'oyasini yaqqol namoyon etib turgan jamiyatimizning intellektual taraqqiyoti istiqbol-larining namoyishi kabi yangrad. Samarqand konferensiyasi yetakchi o'zbek va xorijlik sharqshunos olimlarining samarali ilmiy hamkorligini yaqinlashtirish va faollashtirishda qalov vazifasini o'taydi.

Kezi kelganda, yana bir muhim nuqta alohida ta'kidlashni istardim. Samarqand konferensiyasi milliy va ma'naviy meros yo'nalishidagi ishlarning burilish nuqtasi sifatida baholanmog'i kerak. 2014 yil 15-16 may milliy, ma'naviy merosga e'tibor ramzi o'laroq ajdodlar merosiga, qadriyatlarga, ana shu tuproq urf-odatlariga ehtirom tantana qilgan kun sifatida tarixdan joy oldi.

Ajdodlarimizning noyob ma'naviy merosi borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 8 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda Respublika akademik ilm-fani va oliy ta'limning integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2204-son Qarori va uning asosda chiqarilgan Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 7 avgust "TDSHI qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi faoliyatini tashkil qilish va yangi kutubxona binosi qurilishini tezlashtirish tadbirlari haqida"gi 219-son Qarori soha rivoji uchun yana bir olg'a bosilgan qadam bo'ldi.

Bu haqda Yurtboshimiz Samarqanddagi nutqida alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlagan edi: **"Bugun hech bir mubolag'asiz aytish mumkin va buni men alohida qayd etmoqchiman, o'rta asrlar Sharq daholarining buyuk kashfiyotlaridan iborat ilmiy merosning chuqur qatlamlari hali to'liq o'rganilmagan va o'z tadqiqotchilarini kutmoqda"**. Shu nuqtai nazardan, qaror qadimiy Sharq qo'lyozmalari va Sharq tillaridagi tarixiy hujjatlarini saqlash, tizimlashtirish, O'zbekistonda saqlanayotgan noyob qo'lyozmalarining elektron bazasini yaratish va yuritish, yozma yodgorliklarni chuqur tizimli o'rganish va ularning ilmiy tugal tavsiflarini amalga oshirish, ilmiy sharhlangan tarjimalarni tayyorlash, yangi tashkil etilgan Sharq qo'lyozmalari markazi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash, jumladan, manbashunoslik hamda matnshunoslik bo'yicha kadrlarning yangi avlodini tayyorlash singari kechiktirib bo'lmas vazifalarni yechishga qaratilgan huquqiy asosdir.

Darhaqiqat, institut qoshida tashkil etilgan Markaz endilikda o'z salohiyatini to'laqonli namoyon etishi uchun olimlarimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mahmud Zamah-shariy, Alisher Navoiy, Bobur singari yuzlab jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan mutafakkir bobolarimiz qoldirgan noyob ilmiy merosni tadqiq etishlari, ular asosida bugungi hayotimiz uchun zarur xulosalar, amaliy taklif-tavsiyalar berishlari kerak.

Olamni bilish, insonning qadr-qimmatini, ahloq, san'at va qadriyatlar, ijtimoiy bag'rikenglik, an'anaviylik va zamonaviylik o'r-tasidagi vorislik munosabatlari kabi muammolar bilan bog'liq masalalar Sharq ilmida o'ziga xos talqin etilishi ko'pchilikka ma'lum. Qadim davrlardan boshlab olam, uning yaratilish sir-sinoatlari va unda insonning tutgan o'rni kabi o'lmas mavzular ham vatandosh mutafakkirlarimiz qarashlarida o'ziga xos sharqona yechim topib kelgan. Vatanimiz va jahonning ko'p mamlakatlari qo'lyozma fondla-rida saqlanayotgan va o'rganilayotgan minglab noyob manbalar ham bunga guvohdir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi globallashuv sharoiti va u bilan bog'liq holda jamiyat hayotining barcha sohalarida kuzatilayotgan integrativ mayllar, tobora chuqurlashib borayotgan axborotlashuv jarayonlari Sharq va G'arb madaniyatini o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yish emas, balki eng avvalo, ularning har birining tub mohiyatini teran anglash, ular o'rtasida ob'ektiv ravishda qadimdan mavjud bo'lib kelgan o'zaro ta'sir, hamkorlik va boyish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish mexanizmlarini mustahkamlash, bir so'z bilan aytganda bu boradagi umumjahon ahamiyatiga molik ilmiy paradigmalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zero, Yurtboshimiz Samarqand konferensiyasida ham alohida to'xtalib o'tdilar: **"...O'rta asrlarda yashab, ijod etgan buyuk Sharq alloma va mutafakkirlarining tengsiz asarlari va ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu – bebaho boylik, yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, kerak bo'lsa, yangi kashfiyotlar uchun ajoyib materialdir"**.

Ana shu sharoitda "Sharq falsafasi va madaniyati" nomli yangi ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vazifasining institut zimmasiga yuklatilishi ham o'tmish ajdodlarimiz falsafiy va ma'naviy merosini jahon fani yutuqlariga tayangan holda qiyosiy tahlil asosida chuqur va jiddiy o'rganish, zamonaviy voqelik talablariga muvofiq bo'lgan teran xulosalar chiqarish imko-nini beradi. Ta'lim yo'nalishining ochilishi yolg'iz institut faoliyati uchun emas, balki mustaqillik yillarida O'zbekiston sharqshunoslik fani rivojlanishi yo'lidagi muhim bosqich bo'ldi.

Muhimi, ba'zi olimlar tomonidan yaqin kelajakda sivilizatsiyalar to'qnashuvi haqidagi ilmiy bashoratlar ilgari surilayotgan bugungi kunda Sharq xalqlari tili, madaniyati, falsafasi va tarixini tizimli tadqiq etish uchun katta imkoniyatlar yaratilayotgani bu boradagi nafaqat nazariy-metodologik muammolarni samarali hal etilishiga, balki ayni paytda ko'plab muhim bo'lgan, amaliy ahamiyatga ega masalalarni ham amalga oshirishga imkon berishi shubhasiz.

Vatanimiz – O'zbekiston ibtidoan to hozirga qadar o'zining teran ijtimoiy-falsafiy qarashlari, mafkurasini, axloqi, ma'naviyati va madaniyati, hayot tarziga ega bo'lgan xalqlar yashab, umrguzaronlik qilib kelayotgan betakror sotsiomadaniy makon sifatida Sharq sivilizatsiyasining gultoji hisoblanadi. Tarixan Buyuk Ipak yo'lining gavjum chorrahalaridan birida joylashgan ona yurtimizda doimo bir vaqtning o'zida ko'plab madaniyatlar o'zaro ta'sir va aloqada bo'lib kelgan. Shu bois, ushbu zaminda madaniy hamkorlik, o'zaro ma'naviy boyish jarayonlari va eng muhimi o'zaro tushunish, e'tibor va hurmat singari fazilatlarida o'zini namoyon qiluvchi

bag'rikenglik xalqimiz mentalitetining bosh g'oyalariidan biridir.

Bundan tashqari Prezidentimizning 2014 yil 3 sentyabrda "Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarkibida xitoyshunoslik fakultetini tashkil etish to'g'risida"gi 2228-sonli Qarori asosida xitoyshunoslik fakultetining ochilishi sharqshunoslik ufqlarini yanada kengaytirdi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar tobora strategik darajada rivojlanib borayotganligi, ushbu mamlakatlar siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarining jadal sur'atlar bilan kengayib borayotganligi natijasida milliy xitoyshunos kadrlarimizni yetishtirish vazifasi kunning dolzarb masalasi sifatida maydonga chiqdi. Albatta, buningdek sharoitlardan unumli foydalangan holda xitoyshunoslik sohasini, qolaversa, sharqshunoslikni yanada rivojlantirish institutimiz zimmasiga yuklatilgan sharafli vazifa sifatida qabul qilinmoqda.

Hozirda dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar, jadal taraqqiyot natijasida shakllanayotgan jahon yangi tizimida sharq mamlakatlari nihoyatda yuqori pozitsiyalarni egallab bormoqda. Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston kabi sharqning yirik mamlakatlarida sivilizatsiya ta'sirida geopolitik va geoiqtisodiy vaziyatlarning o'zgarishi butun dunyo bo'yicha kuchlarning o'rnini qayta ko'rib chiqishni taqozo etayotgani hammaga ma'lum bo'lib qoldi. Bu holatda sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni o'rganish, mazkur davlatlarning dunyo taraqqiyot tizimiga ta'siri va milliy manfaatlarining tutash nuqtalarini aniqlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kompleks tarzda olib borish taqozo etilmoqda. Shu sababli ham zamonaviy sharqshunoslik fanining yangi, muhim va kompleks tadqiqotlari quyidagi ilmiy muammolar tahliliga bag'ishlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

TDSHI huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi ilmiy jamoasi va institut professor-o'qituvchilari hamda talabalari faoliyatini uyg'unlashtirish, ilm-fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish; qo'lyozmalarni chuqur o'rganib xalqimizning buyuk merosini jahonga tanitadigan yosh tadqiqotchilar, manbashunoslarni tarbiyalash eng dolzarb vazifadir. Shu munosabat bilan institutning ilmiy-tadqiqot ishlariga qobiliyatli, ilmiy salohiyatli yoshlarni jalb etishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni ishlab chiqish hamda amalda samarali tatbiq etish vositasida sharqshunos kadrlarni yoshartirish muammosini hal etishga yetarlicha sa'y-harakatlar yo'naltirilayotganligini ham zikr etib o'tish darkor.

Bobolarimizdan bizga qoldirilgan noyob ilmiy merosni o'rganishni davom ettirish, Sharq mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlarni tadqiq qilish orqali ularning tajribalarini o'rganish; Sharq mamlakatlarining o'zaro munosabatlari, shuningdek, O'zbekiston bilan aloqalarini har tomonlama tadqiq qilish; ular o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan manfaatlari kesishgan nuqtalarni hamda muammolarni aniqlash orqali xalqaro munosabatlar tizimining global taraqqiyot darajasiga ta'sirini tahlil qilish; sharqshunoslik va mintaqashunoslik sohalarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarini qo'llash masalalarini o'rganish; filologiya yo'nalishida tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'yicha yangi nazariyalar, fandagi yangicha yondashuvlarni o'rganish va qiyosiy tadqiqotlar olib borish kabi vazifalarni zamonaviy qarashlar asosida bajarish kun tartibiga chiqmoqda.

Mazkur muammolar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish kafedralarning yetakchi professor-o'qituvchilari hamda Sharq qo'lyozmalari markazi ilmiy xodimlari zimmasiga tushadi.

Shuningdek, ushbu va boshqa ilmiy muammolarni samarali hal qilish, bu ishlarga, ayniqsa, salohiyatli yoshlarni jalb etishda institut qoshidagi ilmiy tadqiqot markazlari: *Sharq tilshunosligi markazi, Markaziy Osiyo tarixi va tarixiy geografiyasini tadqiq qilish markazi, Mintaqaviy adabiyotlar tadqiqi markazi, Yaqin va O'rta Sharq masalalari tadqiqot markazi, Mintaqaviy iqtisod masalalari tadqiqot markazi* ishini rivojlantirish va takomillashtirish talab etiladi.

Institutimizda amalga oshirib kelinayotgan katta hajmdagi o'quv, uslubiy, ilmiy va ma'naviy hamda ma'rifiy jarayonlar natijasi o'laroq, hozirgi davrga kelib Markaziy Osiyoda eng yirik hisoblangan sharqshunoslik ta'lim dargohimiz haqiqiy ziyo maskaniga aylanganligini har qancha g'urur va iftixor bilan ta'kidlasak arziydi. Ayni paytda, mustaqil taraqqiyotimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'lgan yoshlarimizning yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilimlarning sohibi etib tarbiyalashdek muqaddas, ulug'vor maqsadlarni ko'zlab faoliyat yurgizayotgan institutimiz jamoasi, professor-o'qituvchilari, olimlari, ilmiy tadqiqotchilari oldimizda yanada mas'uliyatli, yangi, ulug'vor vazifalar turganligini ham yaxshi anglab turibdilar. Binobarin, biz uchun **hozirgi zamonning sharqshunosi, eng avvalo, keng qamrovli bilimlarga ega bo'lgan: chet tillarini mukammal bilgan, xorijiy mamlakatlarda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va tarixiy jarayonlar, matnshunoslik, manbashunoslik kabi o'ziga xos sohalar bilan shug'ullana oladigan, ilmiy salohiyati yuqori mutaxassisdir.**

Mavzu yuzasidan savollar va topshiriqlar:

1. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy Ibn Sinolarning tutgan o'rni va lisoniy qarashlari.
2. XX-XXI asrda yashab ijod qilgan o'zbek sharqshunoslarining sharq filologiyasi rivojiga qo'shgan hissalarini.
3. O'zbek sharqshunosligining hozirgi yo'nalishlari.

IV. KEYSLAR BANKI

1-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

1. Keys bilan yakka tartibda tanishish.
2. Keys bilan jamoa bo'lib ishlash:
 - 2.1. Aqliy hujum: - muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.
 - 2.2. Jamoaning bahosi va ustuvor g'oyalarning tanlanishi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

2-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

1. Keys bilan yakka tartibda ishlash.
2. Jamoaning muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish, bunday amaliy vaziyatdagi faoliyat bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan munozarasi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

3-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'rtacha o'lchamli.

1. Keys bilan auditoriyadan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlash.
2. Auditoriyada ishlash:
 - 2.1. Kichik guruhlarda ishlash: keys bilan yakka tartibda ishlash natijalarini muhokama qilish bo'yicha kichik guruhlardagi ishlar; jamoaning muammo yechimi bo'yicha taklif qilingan muqobil variantlarni tahlil qilishi va baholashi, ustuvor g'oyani tanlashi; muammoli vaziyatni hal etish dasturining ishlab chiqilishi.
 - 2.2. Guruh ishi taqdimoti.
- 2.3. Muammoli vaziyat yechimi bo'yicha taklif etilgan variantlarning jamoadagi muhokamasi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

Keys savollari

1. Tilga dunyo olimlari qanday ta'rif va izohlar berganlar?
2. Mikrolingvistika va makrolingvistika nimalarni o'rganadi?
3. Qadimgi Hindiston va qadimgi Yunoniston tilshunoslik maktablari haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
4. Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
5. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarining tilshunoslikdagi ahamiyati.
6. Alisher Navoiyning morfologiyaga oid fikrlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Kognitiv tilshunoslik haqida nimalarni bilasiz?
8. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar.
9. Tilshunoslikdagi metod va yo'nalishlar.
10. Lirik tur va uning janrlari
11. Adabiy turlar va janrlar nazariyasi
12. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy Ibn Sinolarning tutgan o'rni va lisoniy qarashlari.
13. XX-XXI asrda yashab ijod qilgan o'zbek sharqshunoslarining sharq filologiyasi rivojiga qo'shgan hissalarini.
14. O'zbek sharqshunosligining hozirgi yo'nalishlari.

V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- me'yoriy hujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

№	Mustaqil ish mavzulari	Soati
1.		2
2.		2

VI. GLOSSARIY

AGGLYUTINATIV TILLAR. Soʻz yasalishi va shakl yasalishi agglyutinativ yoʻli bilan boʻladigan tillar. Mas., turkiy tillar, fin-ugor tillari.

AGGLYUTINATSIYA (lot. Agglutinare - yopishtirmoq). 1. Soʻz yasalish yoki shakl yasalish asosi oʻzgarmagan holda yangi soʻz yoki soʻz shakli hosil boʻlishi). Bunda har bir affiks maʼlum bir maʼno, vazifa bilan qatnashadi. Mas. Turkiy tillarda jumladan, oʻzbek tilida yasama soʻzlar va soʻz shakllari asosga maʼlum izchillik bilan affikslar qoʻshish orqali hosil qilinadi va bu affikslarning har biri oʻz maʼnosi bilan qatnashadi: ter-im-chi-lar-imiz-ga.

ADABIY MEʼYO'R. Til birliklarining adabiy til qoida-talablariga mos holda, namunaviy tarzda qoʻllanilishi, tilning adabiyligini taʼminlovchi vositalarni belgilovchi meʼyor.

ADABIY TIL. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, maʼlum meʼyorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakl. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yozma shakli, 2) ogʻzaki shakli.

AKADEMIK GRAMMATIKA. Mamlakatning asosiy ilmiy tashkiloti – Fanlar akademiyasi tomonidan nashrga tayyorlangan ilmiy grammatika. Mas, “Fan” nashriyoti tomonidan 1975-1976 yillarda nashr etilgan ikki jildlik “Oʻzbek tili grammatikasi”.

AKSENT (lot. accentus - urgʻu). Boshqa tilda soʻzlaganda, tovushlarni oʻsha tildagidan boshqacha holda, oʻz til tovushlari kabi talaffuz etish: oʻzbekcha aksent bilan gapirmoq.

ALIFBO. Yozuv shakllarining (harf va belgilarning) majmui, maʼlum tartibda joylashgan holati: oʻzbek alifbosi.

ALFAVIT (yunon alifbosidagi birinchi ikkinchi harfning nomi (alpha va beta) dan) – q.. **ALIFBO**

AMALIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikning lingvistik masalalarni (mas. Mashina tarjimasini) hal etishni hisobga olgan holda amaliy yoʻl bilan oʻrganuvchi sohalar (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika kabi).

AMORF TILLAR (yun. Amorphos – shaklsiz, shaklga ega boʻlmagan). Affikslarga ega boʻlmagan, soʻzlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yoʻli bilan yoki yordamchi soʻzlar vositasida ifodalanadigan tillar. Mas., xitoy tili.

ANALITIK TILLAR (yun. Analytikos – yoyiq, yoyilgan). Grammatik maʼnolar (gapda soʻzlarning oʻzaro munosabati) soʻz shakllari (shakl yasovchi qoʻshimchalar) vositasida emas, balki yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi, ohang yordamida ifodalanadigan tillar. Mas. Ingliz. Fransuz, ispan tillari analitik tillar guruhiga kiradi. Qiyos. **Sintetik tillar.**

ANOMALIYA (yun. anomalia –meʼyordan chetlashish; notoʻgʻrilik). Umumiy standart tipga muvofiq kelmaydigan, meʼyordan chetlashadigan shakl, tuzilma va b.

ANTI GRAMMATIKA. Antik filologlar tomonidan qadimgi tillar asosida yaratilgan, lekin umumiylikka ega boʻlmagan grammatik qonuniyatlarni ochib beradigan grammatika deb tasavvur qilinuvchi grammatika.

ANTONIMIYA. Til birliklarining semantik jihatdan oʻzaro zid, qarama – qarshi boʻlish hodisasi: Leksik antonimiya. Affiksial antonimiya. Sintaktik antonimiya. Q. **Antonimlar.**

ANTONIMLAR (yun. anti –qarshi, zid; onyma - nom). oʻzaro zid, qarama – qarshi maʼnoli til birliklari: katta-kichik, baland-past, uzoq-yaqin, yaxshi-yomon (leksik antonimlar); -li –siz; qumli-qumsiz (antonim affikslar); esiga kelmoq – yodidan koʻtarilmoq, koʻngli ochiq – koʻngli qora (frazologik antonimlar) va b.

ANTROPOLOGIK LINGVISTIKA (yun. anthropos – odam; logos - taʼlimot). Tilshunoslikning oʻz yozuviga ega boʻlmagan tillarni oʻrganuvchi boʻlimi.

ANTROPONIM (yun. antropos – odam, onuma - nom). kishining atqali oti, ism.

ANTROPONIMIKA. Leksikologiyaning (onomastikaning) kishi nomlarini oʻrganuvchi boʻlimi.

ANʼANAVIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikdagi faqat til qismlari va tuzilishining ichki munosabatlarini, bogʻliqliklarini yoritish bilan birga til va tafakkurning oʻzaro munosabati, tilning jamiyat bilan, shu tilda soʻzlashuvchi jamoa bilan aloqasi kabi masalalarni oʻrganishni ham oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan yoʻnalishlar. Bu yoʻnalishlarga strukturalizm oʻzini qarama-qarshi qoʻyadi. Q. **Strukturalizm.**

ARGO (fras. Argot - jargon). Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (masalan, talabalar, sportchilar, oʻgʻrilar v.b.) oʻziga xos, boshqalar tushunmaydigan lugʻaviy birliklardan iborat til yasama tili. Mas., kolxoz – chiptasiz yoʻlovchilar (haydovchilar tilida).

AREAL (lot. arealis\ area – maydon, makon). Fonetika, leksik, grammatik hodisalarning tarqalish doirasi. Q. **Izoglossa, Lingvistik geografiya.**

AREAL LINGVISTIKA. 1. Tilshunoslikning lingvistik areallarni oʻrganish bilan shugʻullanuvchi sohasi.

2. Tilshunoslikda lingvistik areallarni oʻrganishga alohida eʼtibor beruvchi yoʻnalish.

ARTIKULYATSIYA (lot. articulatio/ articulare – aniq-ravshan aytmoq). Nugq aʼzolarining tovush hosil qilishdagi harakat-faoliyati va holati. Tovushlarning hosil boʻlishida nutq aʼzolarining ishtiroki, holati nuqtai nazaridan artikulyatsiyada ikki narsa farqlanadi: 1) artikulyatsiya oʻrni (q), 2) artikulyatsiya usuli (q). Jarayon sifatida artikulyatsiyaning uch fazasi farqlanadi: 1) pristup (q), 2) viderjka (q), 3) otstup (q.).

BADIY USLUB. Funktsional uslubning turlaridan boʻlib, u tilning kommunikativ va estetik vazifalarning birligi bilan, boshqa uslublarga xos unsurlardan keng foydalanishi, ekspressiv va tasviriy vositalarning keng qoʻllanishi va sh.k. belgilari bilan ajralib turadi. Q. **Uslub.**

BILINGVIZM (lot. bi/ bis – ikki marta + lingua - til) – ayn. Ikki tillilik.

BIR TIL LUGʻATI. Soʻzligi va unga beriladigan taʼrif tavsiflar bir til (oʻz til) materialidan boʻlinadigan lugʻat. Bunday lugʻatlar **bir necha turga ega.** Mas. *Izohli lugʻat* (q), *imlo lugʻati* (q), *sinonimlar lugʻati* (q) va h. Qiyos. **Ikki tili lugʻat.**

BOBO TIL. Genetik jihatdan oʻzaro bogʻliq tillarning kelib chiqishi va taraqqiy etish manbai tiklanadigan mavhum lingvistik model.

VOSITA TIL. Millatlar, elatlar orasida aloqa vositasi boʻlib xizmat qiladigan til.

VULGARIZMLAR (lot. vulgaris – oddiy, sodda) – q. **Dagʻal soʻz, Dagʻal ibora.**

GALLISIZM (lot. gallicus). Fransuz tilidan oʻzlashgan, lekin yot element ekani sezilib turadigan soʻz yoki ibora: mersi, pardon kabi. Q. **Varvarizm.**

GERMANIZM (lot. germanus - german). German tillaridan o'zlashgan, lekin yod unsurlar ekani sezilib turadigan so'z yoki iboralar: dendi, miss va b.

GLOSSARIY. Biror asar, ayniqsa qadimgi asarlardagi eskirgan va kam qo'llanadigan, tushunishi qiyin bo'lgan so'zlar izohlanadigan lug'at.

GLOTTOGONIK JARAYON. Tilning paydo bo'lish va taraqqiyot jarayoni.

GRAMMATIKA (yun. grammatike – harf o'qish va yozish san'ati). 1. tilshunoslikning so'z shakllari (shakl yasalishi), so'z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo'limi. O'rganish manbai, material va vazifasi nuqtai nazaridan grammatikaning bir necha turi farqlanadi: 1) tarixiy grammatika (q); 2) tavsiriy grammatika (q); 3) formal grammatika (q). O'zaro qardosh yoki qardosh bo'lmagan tillar grammatik qurilishni solishtirib o'rganishiga ko'ra grammatikaning ikki turi farqlanadi: 1) chog'ishtirma grammatika (q); 2) qiyosiy grammatika (q).

GRAFEMA (yun. graphe – shakl, surat). Yozuv birligi. Bunday birlik so'zdagi, gapdagi o'rniga ko'ra, uslub va h.ga qarab, katta va kichik shakliga (**A, a**), qora va kursiv shakliga (**a, a**) ega va h. Grafema bir tovushning ham, ikki yonma-yon tovushning ham ifodasi bo'lishi mumkin. Mas. yo (y + o), ye (y + e), yu (y + u), ya (y + a) grafemalari.

GRAFIKA (yun. graphike - yozma). 1. nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tizimi: rus grafikasi, arab grafikasi.

GRESIZM. Grek (yunon) tilidan o'zlashgan, lekin yot unsur ekani sezilib turadigan birliklar (so'z, ibora va b.). Q. **Varvazrizm**.

DESKRIPTIV LINGVISTIKA (ingl. Descriptive - tasviriy). Hozirgi tilshunoslikda amerika strukturalizmi deb nomlanuvchi yo'nalish. Bu yo'nalish til tuzilishi shakliy unsurlarini distributiv metod asosida o'rganadi. Q. **Strukturalizm. Distributiv metod**.

DIAKRITIK BELGI (yun. diakritikos - farqlovchi). Harfga qo'shimcha ravishda birlashtirilib, boshqacha tovushni ko'rsatuvchi harf hosil qilishda qatnashadigan belgi. Mas. yo harfidagi ikki nuqta, q harfidagi ostki belgi va b.

DIALEKT (yun. dialektos – sheva, lahja). Umumxalq tilining son jihatdan kam bo'lgan, biroq hududiy, kasb-hunar va b. jihatdan umumiylikka ega bo'lgan kishilar tomonidan qo'llanadigan ko'rinishi. Q. **Kasb-hunar leksikasi. Sotsial dialekt, Mahalliy (hududiy) dialekt**. Qiyos. **Lahja, Sheva**.

DIALEKTAL LUG'AT. Tilning dialektal va shevalariga xos fonetik yoki ma'no jihatdan adabiy tildagina farq qiladigan so'zlarni qayd etadigan lug'at (mas. "O'zbek xalq shevalari lug'ati". "Fan" nashriyoti, Toshkent, 1971).

DIALEKTIZMLAR. Biror dialektga xos bo'lgan til birliklari. Dialektizm so'z, ibora yoki boshqa birliklar bo'lishi mumkin. Mas. jaman (yomon), choch (soch) – fonetik dialektizm; patinjon (pamidor), bolish (yosti) – leksik dialektizmlar; ko'chaga ko'rdim (ko'chada ko'rdim) – grammatik dialektizm va h.

DIALEKTOLOGIYA (yun. dialektos – sheva, lahja + logos – tushuncha, ta'limot). Tilshunoslikning dialekt, lahja va shevalarni o'rganuvchi bo'limi.

DIAKRONIYA (yun. dia – orqali + chronos – vaqt). Ayrim til hodisalarining, yaxlitligicha til tizimining tarixiy izchil rivojlanish bosqichlari lingvistik o'rganish manbai sifatida. Qiyos. **Sinxroniya**.

DISTRIBUTIV METOD. Struktural lingvistikada til unsurlarini muayyan tilga xos qonu-qoidalar asosida bo'lish metodi.

DOMINANTA (lot. dominans, dominantis - hokim). Sinonimik qatoridagi bosh so'z: bu so'z sinonimik qatoridagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan denotativ ma'noni ifodalaydi. Mas. *yuz – bet – aft – bashara – chehra – jamol – diydor – oraz – uzoq – ruxsor* sinonimik qatorida *yuz* so'zi dominanta hisoblanadi.

DUBLETLA (fran. Doublet / double - ikkili). Bir xil (teng) semantik tarkibga ega bo'lgan til birliklari. Mas. *tilchi – tilshunos, adab – o'qib, arziydigan – arziqli* va b. Q. **Absolyut sinonimlar, variant**.

ĖZUV. 1. Nutqni qogozda (yoki boshka narsada) aks yettirish uchun xizmat qiladigan harfiy grafik shakllar tizimi, shu tizimga asoslanuvchi aloqa vositasi

ĖRDAMCHI SO'ZLAR. Mustaqil holda gap bo'lagi vazifasida kela olmaydigan, turlicha yordamchi ma'no va vazifalarda qo'llanadigan so'zlar. O'zbek tilida yordamchi so'zlar ma'no va vazifasiga ko'ra uch turga bo'linadi: 1) ko'makchi (q.); 2) bog'lovchi (q.); 3) yuklama (q.).

ĖRDAMCHI FE'LLAR. Ėrdamchi vazifasida qo'llanib, qo'shma fe'l hosil qilish, fe'lning analitik shaklini yasash uchun xizmat qiluvchi, shuningdek bog'lama vazifasini bajaruvchi fe'llar. Ular o'z vazifasiga ko'ra uch turga bo'linadi: 1) qo'shma fe'l hosil qiluvchi yordamchi fe'llar : *qil, ayla, et, bo'l, qabul qilmoq, ruxsat etmoq* kabi; 2) fe'lning analitik shaklini hosil qiluvchi yordamchi fe'llar (bular odatda ko'makchi fe'llar deb yuritiladi): *boshla, chiq, yubor* va b.: *kela boshladi, o'qib chiqdim, so'rab ko'r, yiqitib yubordi* kabi; 3) bog'lama vazifasini bajaruvchi ko'makchi fe'llar. Mas., *bo'l: injiner bo'lmoq*.

JARGON (fran. jargon). Biror guruh vakillarining, o'z nutqi bilan ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralari. Mas., *novcha* (aroq), *qizil* (vino) – ichuvchilar nutqiga xos; *tog'amning o'g'li* (milisioner, inspektor) – shofyorlar nutqida.

JONLI TIL. 1. Biror xalqning aloqa quroli sifatida xizmat qilib turgan tili. *Zid. O'lik til*.

IBORA. 1. *ayn. Frazologik birlik*.

2. O'ziga xos uslubiy, dialektal va b. xususiyatga ega bo'lgan so'z, so'zbirokmasi va sh.k.ning umumiy nomi: *Bolalarga xos ibora. Obrazli ibora* kabi.

IDEOGRAMMA. Ideografik yozuvda so'z anglatadigan tushunchani ifodalash uchun qo'llanadigan shartli belgi — simbol.

IDEOGRAFIK ĖZUV. Idiogrammalar asosida yozuv. Q. Ideogramma

IDEOMA (yun. Idioma — o'ziga xos ifoda, ibora) — *ayn. Frazologik chatishma*.

IDIOMATIKA. 1. Biror tilning idiomalari majmui; 2. Tilshunoslikning idiomalarni o'rganuvchi bo'limi; iborashunoslik.

IEROGLIFLIK YOZUV – *ayn. Ideografik yozuv*.

IEROGLIFLAR (yun. hieroglyphoi - muqaddas yozuvlar). Butun bir so'z, bo'g'i yoki tovushni ifodalash uchun xizmat qiladigan grafik ifodalar.

IJTIMOY DIALEKT. Muayan ijtimoiy guruh kishilari foydalanadigan dialekt.

IZOHLI LUG'AT. Lug'aviy birlikning ma'nosi (ma'nolari) keng izohlanadigan, grammatik, uslubiy va b. belgilari ham qayd etiladigan lug'at. Mas. 1980 yilda nashr etilgan ikki jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati».

IKKI TILLILIK. Ikki tilda bemalol fikrlasha olish; ikki tilni bir xilda egallaganlik; zullisonaynlik.

IKKI TILLI LUG'AT. Bir tilning lug'aviy birliklari boshqa tilga tarjima qilib beriladigan lug'at. *Q. Tarjima lig'at.*
Qiyos. Bir tilli lig'at.

ILMIY GRAMMATIKA. Nazariy fikr-g'oyalarning so'nggi yutuqlariga muvofiq yaratiladigan grammatika. *Q. Grammatika.*

ILMIY USLUB. Funksional uslubning bu turi terminologik va mavhum leksikaning, murakkab sintaktik tuzilmalarining qo'llanishi, so'zlarning asosan konkret, to'g'ri ma'noda qo'llanishi, maxsus iboralarga egaligi va sh.k bilan ajralib turadi. Ilmiy uslub o'z ichida quyidagi mayda uslublarga bo'linadi: **ilmiy texnik uslub, ilmiy ish uslub, ilmiy-ommabop uslub, ilmiy-publik uslub.**

IMLO. So'z va uning ma'noli qismlarini yozish (qo'shib yozish, ajratib yozish, chiziqcha bilan yozish, bosh va kichik harflarni ishlatish, shuningdek, bo'g'in ko'chirish qoidalari tizimi. So'z va uning ma'noli qismlarining yozilishi bir necha prinsiplar asosida qoidalashtiriladi. *Q. Imloning morfologik prinsipi. Imloning fonematik prinsipi. Imloning fonetik prinsipi. Imloning an'anaviy prinsipi.*

IMLO LUG'ATI. (orfografik lug'at). So'zlarning mavjud imlo qoidalari binoan to'g'ri yozilishini qayd etuvchi lug'at. Mas., maktab o'quvchilari uchun mo'ljallab tuzilgan «Imlo lug'ati» («O'qituvchi» nashriyoti, 1964); S. Brohimov, E. Begmatov va A. Ahmedovlar tuzgan «O'zbek tilining imlo lug'ati» («Fan» nashriyoti, 1976).

INTEGRATSIYA. (*lot. integratio* – butunlashish, birlashish). Tillar shuningdek, dialektlarning o'zaro noo'xshashliklari yo'qola borib, bir umumiy tilga birlashishi. *Qiyos. Differentsiatsiya.*

INTERLINGVISTIKA. Tilshunoslikning xalqaro aloqalashuv vositalari sifatida turli yordamchi tillarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonini o'rganuvchi bo'limi.

KALLIGRAFIYA. (*yun. kalligraphia* — chiroyli dasxat) — q. **Husnixat.**

KOMPARATIVISTIKA (*lot. comparativis* — qiyosiy) — q. **Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.**

KONTEKST (*lot. contextus* — yaqin aloqa, birikish, qo'shilish) — q. **Nutqiy matn**

KRIPTOGRAFIYA (*yun. kryptos* — mahfiy, yashirin — *grapho* — yozaman). Mahfiy xat turlaridan biri (shifr qo'llashga asoslangan yozuv turi).

KRIPTOLOGIYA. Maxfiy tillar, ularni tuzish qonuniyatlarini, o'qib tushuntirib berish usullarini o'rganuvchi fan.

LATINIZM. (*lot. latinus* — lotincha). 1. Lotin tilidan o'zlashgan, lekin yot ekani sezilib turadigan so'z yoki ibora. 2. Umuman lotin tilidan o'zlashgan so'z yoki ibora.

LAHJA. Mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi. *Qiyos. Sheva.*

LEKSIKOGRAFIYA. (*yun. lexikos* — lug'at *grapho* — yozaman). q. **Lug'atshunoslik. Lug'atchilik.**

LEKSIKOLOGIYA. (*yun., lexikos* — lug'atga oid, lug'at haqidagi, *logos* ta'limot). Tilshunoslikning tilning lug'at tarkibini o'rganuvchi bo'limi. O'rganish ob'ekti, vasifasi nuqtai nazaridan leksikologiya uch turga bo'linadi: 1) tarixiy leksikologiya (*q*); 2) tasviriy leksikologiya (*q*); 3) qiyosiy leksikologiya (*q*);

LINGVISTIKA. (*fran. linguistique* < *lot. lingua* — til) — *ayn.* Tilshunoslik.

LINGVISTIK LUG'AT. Lug'aviy birliklarning ma'nosi, qo'llanishi va boshqa lingvistik xususiyatlari talqin etiladigan lug'at. Mas., izohli lug'atlar, imlo lug'atlari, tarjima lug'atlari, lingvistik lug'atlardir. *Qiyos. Qomusiy lug'atlar.*

LUG'AT. 1. ayn. Leksika

2. Lug'aviy birliklar alifbo tartibida joylashtirilgan, turlicha izohlar berilib, kitob shakliga keltirilgan to'plam. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi, shunga ko'ra uning turlari ham ko'p. Avvalo lug'atlar ikki asosiy turga bo'linadi: 1) lingvistik lug'at (*q*); 2) qomusiy lug'at (*q*);

LUG'ATCHILIK. Lug'at tuzish ishlari; leksikografiya: *Lug'atchilikni rivojlantirish.*

LUG'ATSHUNOSLIK. Tilshunoslikning lug'at tuzish ishlarining ilmiy-nazariy masalalari bilan shug'ullanuvchi bo'limi leksikologiya.

MATEMATIK LUG'AT. Tilshunoslikning tilni tadqiq etish va o'rganishda matematik metodlarini o'rganuvchi sohasi.

MATN. Yonma yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst.

MAXSUS LUG'AT. Ma'lum sohaga, ma'lum qatlamlarga oid so'zlardan iborat lug'at. Bunday lug'atlarning nomida qay jihatdan chegaralanganligini yoki qaysi qatlamga oidlikni ko'rsatuvchi so'zlar bo'ladi. Mas., «Fizika terminlari lug'ati», «Dialektologik lug'at», «Frazologik lug'at» va b.

MAXFIY TIL. Alohida ijtimoiy guruhlarga xos, shu guruhga oid kishilar tushunadigan va foydalanadigan til.

MASHINA TARJIMASI. Matn (tekst)ni berilgan dastur asosida elektron mashinalar yordamida bir tildan ikkinchi tilga ugrish.

ME'YOR. Til birliklarini u yoki bu ko'rinishida jamiyat tomonidan aniqlangan, belgilangan ishlatish imkoniyat va qonuniyatlari. *Q. Adabiy me'yor. Leksik me'yor. Morfologik me'yor. Sintaktik me'yor. Orfopoeik me'yor. Fonetik me'yor. So'z yasash me'yor.*

MORFOLOGIYA. (*yun. morohe* — shakl—*logos*—ta'limot).

1. So'z shakllari haqidagi grammatik ta'limot. Morfologiya sintaksis bilan birga grammatikani tashkil etadi: *O'zbek tili leksikologiyasi va morfologiyasi.*

2. Tilning morfologik qurilishi: O'zbek tilining leksikasi va morfologiyasi.

NATURALISTIK OQIM. Tilni tabiiy organizm sifatida qarovchi lingvistik oqim.

NATURALISTLAR. Halqaro yordamchi tilni tabiiy milliy tillar asosida yaratish zarur de biluvchi oqim.

NUTQ. 1. Tilning amaliyot shakli, voqealanishi so'zlovchining til vstalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

2. Nutqning kommunikatsiya maqsadi va sharoitiga qarab leksik va grammatik vositalardan muvofiq'ini saylab ishlatish

bilan xarakterlanuvchi turi: *Rasmiy nutq. So‘zlashuv nutqi. Qiyos. Til.*

NUTQ MADANIYA TI. 1. Filologiya fanining jamiyat taraqqiyotining ma‘lum davrida nutqdan foydalanish jarayonini o‘rganish, kishilar orasidagi aloqa vositasi bo‘lgan tildan foydalanish qoidalarini ilmiy asosda belgilash bilan shug‘ullanadigan bo‘limi. 2. Nutqning mi‘yoriyligini, uning ma‘lum tarixiy taraqqiyot davrida shu tilda so‘zlashuvchi jamoa tomonidan quyiladigan talablarga mosligi; talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, so‘z yasalishi, qilish. Nutqning me‘yoriyligi fikrining aniq, ravshan va sofligini ham o‘z ichiga oladi.

PARALINGVISTIKA. Tilshunoslikning o‘zaro aloqa-aralashuvda imo-ishora, mimka, nutq vaziyati kabi omillarni o‘rganuvchi sohasi.

PIKTOGRAFIK YoZUV. (lot. pictus — bo‘yoqlar bilan tasvirlangan — grapho — yozaman). Nutq mazmuni rasm, shartli tasvir tarzidagi grafik shakllar asosida ifodalangan yozuv.

PSIXOLINGVISTIKA. Tilshunoslikning nutq faoliyati, nutq akti, nutq mazmuni bilan so‘zlovchining maqsad niyati orasidagi aloqadorligi nuqtai nazaridan o‘rganuvchi sohasi. Psixologiya bilan lingvistikaning sintezi sifatida yuzaga kelgan bu soha nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o‘rganadi.

PURIZM. (lot.puris — sof). Tilning sofligini saqlashga, chet tillardan so‘z o‘zlashtirishga qarshi chiqish .

RITORIKA. (yun. rhetorika) Notqlik san‘ati nazariyasi va notqlik san‘ati haqidagi fan.

SEMANTIKA. (fran. semantique<yun. semantikos—ifodalovchi). 1. Til birliklarining mazmun, ma‘no tomoni.

SEMASIOLOGIYA. (yun. semasia— ifodalash—logos—tushuncha, ta‘limot). Til birliklarining, birinchi navbatda, lug‘aviy birliklarning semantik tuzilishi va u bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi soha. *Qiyos. Onomosiologiya.*

SEMIOTIKA (yun. semiotike<semion—belgi). Turli-tuman belgilar (ramzlar) tizimining umumiy xususiyatlarini o‘rganuvchi fan.

SILLABLIK YoZUV. Fonologik birlik bo‘lgan bo‘g‘in.

SINGARMONIZM. (yun. syn—birga—harmonia — ohangdoshlik). So‘zning asosi va affiks tarkibidagi unilarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, garmoniyasi. Bu hodisa ayrim turkiy tillar uchun, o‘zbek tilining esa ayrim shevalarga xos xususiyatidir.

Mas., o‘zbek tilining qipchoq tip shevalarida uchinchi egalik affiksining **i, i, u** kabi varianlarga ega ekanligi singormonizm belgisidir: *ishi, ati, ozu* (o‘zi) kabi.

SINTAKSIS. (yun. syntaxis — tuzish). 1. Grammatikaning o‘zaro bog‘lanishli nutq qurilishi o‘rganuvchi, bo‘limi. Bu bo‘lim ikki asosiy qismdan iborat: 1) so‘z birikmalari haqida ta‘limot qismi (so‘z birikmalari sintaksisi); 2) gap haqida ta‘limot qismi (gap sintaksisi). 2. So‘z turkumlarining nutqdagi vazifalari haqidagi ta‘limot (fe‘l sintaksisi).

SINTETIK TILLAR. (yun. synthetikos — birlashtirilgan, qo‘shilgan). Grammatik ma‘nolar (gapda so‘zlarning o‘zaro munosabati) shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalangan tillar. Mas., rus va nemis tillari sintetik tillar jumlasidandir. *Qiyos.*

Analiitik usul.

SINXRONIYA. (yun. syn — birga — chronos — vaqt, ya‘ni bir baqtilik). Ayrim til xodisalarining, yaxlitligicha til tizimining ma‘lum bir til rivojlanish bosqichdagi holatini lingvistik o‘rganish predmeti sifatida shartli ajratib olish. *Qiyos.*

Diaxroniya.

SISTEMA. (yun. systema — bir butunlik, qismlardan tuzilgan narsa) — q. **Tizim.**

SOTSIOLINGVISTIKA. (lot. soti(etas) — jamiyat lingvistikasi). Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyot sharoitlarini o‘rganuvchi sohasi. Sotsiologiya va lingvistikaning sintezidan iborat bu soha til bilan ijtimoiy hayot faktlari aloqasi; nolisomiy ta‘sirida til taraqqiyotidagi faol jarayonlar; radio, televidenie, kino kabilarning tilning og‘zaki va yozma shakli o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi, til siyosati yurgazishning vazifa va shakllari; keng xalq ommasi nutq madaniyatini ko‘tarish kabi muommolar bilan shug‘ullanadi.

STURUKTURALIZM (lot. structure - tuzilish, qurilish). Tilshunoslikda til komponentlarining ichki munosabatlarini, o‘zaro bog‘liqligini, tilning tuzilish tomonini yoritish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan yo‘nalish. Sturukturalizmning asosiy yo‘nilishlari qudagilar: 1) Praga lingvistik maktabi; 2) Amerika Sturukturalizmi; 3) Kopengagen maktabi; 4) London lingvistik maktabi.

STURKTURAL LINGVISTIKA 1. **Strukturalizm;** 2. Tilshunoslikning o‘z tekshirish predmetini til tizimidagi ichki munosabatlar va aloqalar bilan chegaralovchi, til va tafakkurning o‘zaro munosabati, tilning jamiyat bilan aloqasi kabi masalalarni cheklab o‘tuvchi sohasi.

SUBSTRAT (lot. sub — ost + stratum— qatlam). Tillarning chatishishi natijasida mag‘lub tilning g‘olib tilda qoldirgan izlari.

SUNIY TIL. Tabiiy (bor bo‘lgan) tillar unsurlaridan halqaro aloqa uchun yordamchi vosita sifatida yaratiladigan til: esperanto (q.), interlingva (q.), ido(q.), va b.

SUFFIKS (lot .suffixus — qadalgan, qoqilgan). So‘zda uning oxiriga qo‘shiladigan affiks. *Qiyos. Prefiks. Infiks. Q. Affiks.*

SO‘Z. Leksimaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, obektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan, turli grammatik mano va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi.

TABIIY TIL. Haqiqiy manodagi, yani fikr alishuv quroli sifatida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan til. Q. **Suniy til.**

TAVTOLOGIYA. (yun. tautologia<tauto— aynan o‘sha + logos — so‘z). Bir fikr(mazmun)ni boshqa so‘z yoki so‘zlar bilan takroran ortiqcha ifodalash, so‘zni ortiqcha ishlatish. Mas., *gapirmoq* o‘rnida *gap gapirmoq, tepmoq* o‘rnida *oyoq bilan tepmoq* deb qo‘llash taftologiya hisoblanadi, chunki *gap, oyoq bilan* qismlari yangi informatsiya bema‘ydi (*gapirmoq, tepmoq* so‘zlaridagi informatsiyani takrorlaydi)

TARJIMA LUG‘ATI. Bir tilning (tarjima qilinayotgan tilning) lug‘aviy birligiga boshqa tilning ma‘no jihatdan ekvivalenti beriladigan, o‘zga tilning lug‘aviy birligi tarjima etiladigan lug‘at. Bunday lug‘atlar ikki tilli yoki ko‘p tilli bo‘lishi mumkin: *ruscha-o‘zbekcha lug‘at, inglizcha-ruscha-o‘zbekcha lug‘at* va b.

TARIXIY GRAMMATIKA. Grammatik hodisalarni (so‘z shakli, so‘z birikmasi va gaplarni) turli tarixiy bosqichlardagi taraqqiyoti bo‘yicha (diaxronik) qiyoslab o‘rganuvchi grammatika.

TARIXIY DIALEKTOLOGIYA. Dialektga xos hodisa vaxususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davlarda o'zgarishi va bu xususiyatlarning tashkil topishida boshqa tillarning ishtiroki kabi masalalar bilan shug'ullanadigan dialektologiya.

TARIXIY LEKSIKOLOGIYA. Tilning lug'at tarkibini tarixiy taraqqiyotida (diaxronik planda) o'rganuvchi leksikologiya.

TARIXIY MORFEMA. Hozirgi tilda ma'nosini yo'qotgan (til birligi sifatida yo'q), tarixan ma'noli bo'lgan morfema. Mas., *yalpoq, yaylov* kabi so'zlarning *yal-*, *yay-* qismi tarixan lug'aviy ma'noli morfema bo'lgan.

TARIXIY FONETIKA. Tilning tovush tomonini tarixiy taraqqiyotda (diaxronik planda) o'rganuvchi fonetika.

TEZAURUS. (yun. *thezauros*-xazina). Tilga oid leksik tarkibini to'la hajimda aks ettiruvchi lug'at.

TEKST. (lot. *textus*-bog'lanish, qo'shilish)- q., **matn.**

TERMIN. (lot. *Terminus*- chek, chegara, chegara belgisi). Fan, texnika va boshqa sohga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi. Mas., lingvistik terminlar: *gap, ega, ot, son, tovush...*; geometriyaga oid terminlar: *aylana, uchburchak...*; fizikaga oid terminlar: *jism, bosim, harakat, maydon...*; kimyoga oid terminlar: *suv, kumush, ishqor, tuzlar* va b.

TERMINOLOGIK LUG'AT. Ma'lum bir sohaga oid so'z va terminlarni qayd yetuvchi lug'at. (Mas., H. Yu. Bekmuhammedovning 1978 yilda nashr etilgan << Tarix terminlari lug'ati >>).

TERMINOLOGIYA (termin+logos-so'z, ta'limot). 1. Biror ilm, kasb va b. sohaga oid terminlar mavjud. Mas., grammatik terminologiya, san'at terminologiyasi va b.

TIZIM. 1. O'zaro munosabatlar bilan bog'langan, bir butun bo'lib uyushgan til unsurlari majmui: *Til tizimi. So'z yasash tizimi.*

TIL. 1. Nutq tashkil etib, fikr, his-tuyg'u, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar tizimi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuvi, vikirlashuv quroli bo'lib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

TILLARNING GENEALOGIK TASNIFI- q. **Tillarning shajaraviy tasnifi**.

TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI. Tillarni grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishga ko'ra guruhlarga ajratish. Bu tasnifga ko'ra tillarning quyidagi turlari ajratiladi. 1) aform tillar (q.); 2) agglutinativ tillar (q.); 3) flektiv tillar (q.); 4) polisintetik tillar (q.). Yana (q.). **Analtik tillar, Sintetik tillar.**

TILLARNING SHAJARAVIY TASNIFI. Tillarni kelib chiqish manbasiga, umumiylikiga ko'ra guruhlarga adratish. Bunday umumiy manbadan kelib chiqan tillarning katta guruhlari qarindosh tillar oilasini tashkil etadi. Mas., hind-evropa tillari oilasi, mo'g'ul tillar oilasi, turkiy tillar oilasi va b.

TIL SATHLARI. Tilni tekshirish jarayonida, uni tahlil etishning turli usullarida belgilanadigan qatlamlari (qatorlari). Tilning asosiy sathlari sifatida fonologik, morfologik, sintaktik va leksik sathlar farqlanadi.

TILSHUNOSLIK. Til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan. Maqsadi, vazifasi va sh.k.ga tilshunoslikning bir necha yo'nalishlari (sohalari) bor: umumiytilshunoslik(q.); amaliytilshunoslik(q.); xususiytilshunoslik(q.); strukturallingvistika(q.); matyematiklingvistika(q.); vab.

TILSHUNOSLIKKA KIRISH. Umumiy tilshunoslikning til haqida dastlabki ma'lumot beruvchi, tilshunoslikning asosiy qismlarini va xususiy tilshunoslikda o'rganiladigan masalalarni o'zlashtirish uchun nazariy asos beradigan qismi.

TIPOLOGIYA (yun. *typos* - iz, shakl, namuna + *logos* - ta'limot). Tilshunoslikning tillarni tipologik tasnif qilish prinsipi va usullarini o'rganuvchi bo'limi.

O'zbekiston Respublikam Prezidentining Qarori

CHET TILLARNI O'RGANISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Qayd etib o'tilsinki, mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Shu bilan birga, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:

1. Belgilab qo'yilsinki, 2013/2014 o'quv yilidan boshlab:

respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib boriladi;

umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilarini chet tillar bo'yicha darsliklar va o'quv-uslubiy komplekslar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining aylanma mablag'lari hisobidan bepul amalga oshiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o'rganishni kengaytirish chora-tadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Dasturga kiritilgan chora-tadbirlar belgilangan muddatlarga muvofiq sifatli va o'z vaqtida bajarilishi yuzasidan shaxsiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, boshqa vazirliklar, idora va ijrochi-tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilsin.

3. Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiklashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda - Muvofiklashtiruvchi kengash deb yuritiladi) 2-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil qilinsin, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti uning ishchi organi etib belgilansin.

Muvofiklashtiruvchi kengash (A.Ikromov) manfaatdor vazirliklar, idoralar bilan birgalikda hamda yetakchi olim va mutaxassislarni jalb etgan holda:

2013 yilning 1 martigacha bo'lgan muddatda har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq, mezonlarini nazarda tutuvchi yangi ta'lim standartlari tasdiqlanishini ta'minlasin;

2013 yilning 1 mayigacha bo'lgan muddatda umumta'lim maktablarining birinchi sinfdan boshlab chet tillar ta'limining uzluksiz joriy etilishini, shuningdek, ta'limning barcha bosqichlarida uning davomiyligini nazarda tutuvchi umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarining yangi o'quv rejalari va dasturlari tasdiqlanishini ta'minlasin;

ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalari, darsliklarni ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etish uchun yetakchi xorijiy o'quv markazlarini, chet tillar bo'yicha xalqaro ekspertlar va mutaxassislarni jalb etsin;

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda chet tillarni o'qitish tizimi tubdan qayta ko'rib chiqilishi va kuchaytirilishini, o'quv yakunlari bo'yicha umumiy tirof etilgan testlar (imtihonlar) topshirilishini ta'minlasin.

4. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tarkibida Chet tillarni bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi tashkil qilinsin, Markaz xodimlarining soni 12 kishiga ko'paytirilsin va uning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilansin:

xalqaro e'tirof etilgan standartlarning talablariga muvofiq chet tillarni bilish darajasini baholashning Milliy test tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

o'rganuvchilarni chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlashni to'lov asosida test o'tkazish (jumladan, Internet orkali masofaviy) va davlat namunasidagi tegishli malaka sertifikatini berishni tashkil etish;

o'rganuvchilarning mustaqil ravishda, chet tilini bilish va egallash darajasini aniqlash uchun, testga tayyorlanishlariga zarur ma'lumotlarni tayyorlash va Internet tarmog'iga joylashtirish.

Markazning byudjetdan tashqari daromadlari hisobidan unga yuklangan vazifalarni bajarish uchun Markazga to'lov asosida mustaqil ekspertlarni va imtihon oluvchilarni jalb etish huquqi berilsin.

5. Davlat test markazi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, ikki oy muddatda, 2015/2016 o'quv yillaridan boshlab, barcha oliy ta'lim muassasalariga kirish testlari blokiga xorijiy tilni kiritish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

6. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

umumta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalarida chet tillar o'qituvchilariga zarur extiyoji bo'lgan uzoq tumanlar va qishloq aholi punktlarida yashayotgan aholi ichidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining tavsiyanomalari asosida chet tillar o'qituvchilari ixtisosligiga oliy ta'lim muassasalariga maqsadli qabulni amalga oshirishga ruxsat etiladi;

maqsadli qabul asosida oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan shaxslar, o'qishni bitirganlaridan so'ng, o'zlari yashaydigan joylarda joylashgan va mahalliy davlat hokimiyati organlari tavsiyanomalarida ko'rsatilgan ta'lim muassasalarida 5 yildan kam bo'lmagan muddatda olingan mutaxassisliklari bo'yicha ishlab berishlari shart.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligining chet tillar o'qituvchilari va muallimlariga qonun hujjatlari bilan belgilangan rag'batlantiriluvchi to'lovlar va qo'shimchalarni hisoblashda, ularning lavozim maoshlari tarkibiga kiritgan holda qishloq joylarda joylashgan ta'lim muassasalarida ularning tarif stavkalariga 30 foiz va boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz stavkalari miqdoridagi har oydagi ko'shimchalar qo'shib berishni belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi uch oy muddatda, moliyalash manbalari Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar, xorijiy kreditlar va xalkaro grantlar, shuningdek, homiylar va xayriyachilar mablag'lari ko'zda tutilgan holda, 2013-2016 yillarda ta'lim muassasalari xorijiy tillar kabinetlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya va o'qitishning texnik vositalari va anjomlari bilan (qo'shimcha jihozlash) jihozlashning jadallashtirilgan dasturini ishlab chiqsin hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda uni Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

9. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Davlat aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari ko'mitasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligi, bolalar va yoshlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini inobatga olgan holda quyidagilarni ta'minlasin:

televidenie, shu jumladan mahalliy telekanallar orqali bolalar va o'smirlarni xorijiy tillarga o'rgatish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash hamda ularni translyatsiya qilish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati, jahon ilmi va texnikasiga

bag'ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy hamda multiplikatsiyaviy filmlarni o'zbek tilidagi subtitr yordamida, muntazam ko'rsatib borishni amalga oshirish;

"ZiyoNet" tarmog'i orqali ta'lim muassasalarining xalqaro ta'lim va bilim olish manbalariga kirish imkoniyatlarini sezilarli orttirish, uning resurs markazini multimedia resurslari, shaxsiy kompyuterlar va mobil uskunalar uchun ilovalar bilan boyitish, shuningdek, ingliz tilida o'quv va badiiy adabiyotlar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni chop etish, ularga maxsus ruknlar hamda ilovalarni tashkil qilish.

2013 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun asoslangan hisob-kitoblar bo'yicha har yili byudjet mablag'lari ajratilishini nazarda tutsin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va zirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun xujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar, shuningdek, idoraviy me'yoriy hujjatlarga tegishli o'zgartishlar kiritsin.

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.Ikromov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.KARIMOV
Toshkent shaxri, 2012 yil 10 dekabr.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING RAHBAR VA PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'IRISIDA

Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishlari deb hisoblansin: oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish asosida ularning qonunchilik normalari, nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganish; yuqori samarali zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribani keng joriy etgan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari, dastur va uslublarini tubdan yangilash; oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining global internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan holda, zamonaviy innovasion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi; oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanishi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, o'z tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan boshqa vazirlik va idoralarning qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish borasida mamlakatimizning ushbu yo'nalishlarda Doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish ilmiy kengashlari, zarur uslubiy, o'quv-laboratoriya va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan zamonaviy moddiy-texnik bazaga ega 15 ta yetakchi oliy o'quv yurtini oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlashni tashkil etish bo'yicha Tayanch oliy o'quv yurtlari sifatida belgilashga doir taklifi 1-ilovaga muvofiq qabul qilinsin. Quyidagilar Tayanch oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin: qayta tayyorlashning tegishli yo'nalishlari bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatadigan oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etish; ushbu kurslarda mashg'ulotlarni sifat jihatidan yuqori tashkiliy va professional darajada o'tkazish uchun zarur o'quv-uslubiy va moddiy-texnik bazani shakllantirish; oliy o'quv yurtining yetakchi o'qituvchilarini va Doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengash a'zolarini, shuningdek, mamlakatimizdagi boshqa oliy o'quv yurtlarining yuqori malakali o'qituvchilari, xorijiy mutaxassislar, o'quv-uslubiy xodimlar va amaliyotchi mutaxassislarni shartnoma asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'quv mashg'ulotlarini olib borish uchun keng jalb etish;

qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha zarur axborot-ma'lumot bazasini shakllantirish, zamonaviy innovasion pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqish va qayta tayyorlash jarayoniga tatbiq etish; qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qiyotgan tinglovchilar uchun ularning ochiq ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishi, o'tilgan darslarning muhokama qilinishi va tanqidiy tahlil etilishiga asoslangan pedagogik amaliyotni tashkil etish; kurslarning viloyatlardan kelgan tinglovchilariga qayta tayyorlash va malaka oshirish davrida oliy o'quv yurtlari turarjoylaridan joy ajratish bo'yicha choralar ko'rish.

Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha Tayanch oliy o'quv yurtlari sifatida belgilangan oliy o'quv yurtlari rektorlari zimmasiga qayta tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yuksak saviyada tashkil etish uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin. 3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

idoraviy mansubligidan qat'i nazar, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari uch yilda kamida bir marta doimiy asosda 1-ilovaga muvofiq Tayanch oliy o'quv yurtlarining doimiy faoliyat ko'rsatadigan kurslarida qayta tayyorlashning tegishli yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlanishi va malakasini oshirishi shart;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish 2-ilovaga muvofiq Oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash kursi o'quv rejasining yangilangan namunali tuzilmasi asosida ishlab chiqilgan 288 soatlik maxsus

dasturlar bo'yicha ikki oy davomida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi; kurslar yakunida tinglovchilar har bir Tayanch oliy o'quv yurtida tashkil etiladigan oliy o'quv yurti rektori yoki Fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha ilmiy kengash raisi rahbarligidagi ilmiy kengash a'zolari, o'quv-uslubiy ishlar sohasidagi yirik mutaxassislardan tashkil topgan kamida 7 kishidan iborat Attestatsiya komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan attestatsiyadan o'tadi; Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga 3-ilovaga muvofiq davlat namunasidagi qat'iy hisobdorlik hujjati hisoblangan malakaviy attestat beriladi; qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlari bo'yicha attestatsiyadan o'tolmagan oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlari belgilangan muddatda takroriy qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tishi shart; oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlari takroriy attestatsiyadan o'tolmagan taqdirda, oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini yo'qotadi va ular bilan asosiy ish joyi bo'yicha mehnat shartnomasi bekor qilinadi; qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qish yakunlariga ko'ra, attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog kadrlar tegishli yo'nalish bo'yicha bo'sh pedagog lavozimini egallash tanlovidan o'tishda imtiyozli huquqqa ega bo'ladi; Tayanch oliy o'quv yurtlarida qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'qiyotgan tinglovchilarning asosiy ish joyida egallab turgan lavozimi va o'rtacha ish haqi o'qish davrida saqlab qolinadi. Oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatadigan kurslar faoliyati 2015 yilning 1 sentyabridan tashkil etilsin.

4. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2015 yilning 1 avgustiga qadar oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash kursi o'quv rejasining tasdiqlangan Namunali tarkibini inobatga olgan holda, oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yangilangan malaka talablari, o'quv rejaları va dasturlarining ishlab chiqilishi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini ta'minlasin.

5. Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining rahbar va o'qituvchilarini qayta tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish jarayonlarini tashkil etish borasidagi ishlarni aniq va samarali muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan Idoralararo komissiya tashkil etilsin va uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklansin: oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining zamonaviy talablarga muvofiq o'z kasb darajasini muntazam oshirib borishdan manfaatdorligiga alohida e'tibor qaratgan holda, oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha mazkur Farmonda ko'zda tutilgan vazifalar bajarilishining tegishli nazoratini ta'minlashni tashkil etish; oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish bo'yicha Tayanch oliy o'quv yurtlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning o'quv-uslubiy va moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish hamda mustahkamlashga ko'maklashish; zamonaviy talablar hisobga olingan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv rejaları hamda dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish; pedagog kadrlarni qayta tayyorlash jarayonini qat'iy tartibga solish uchun professor-o'qituvchilari tegishli qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlashdan o'tadigan va malakasini oshiradigan oliy o'quv yurtlarining tegishli kafedralarini muayyan Tayanch oliy o'quv yurtlariga birlashtirish, bunda Tayanch oliy o'quv yurti va mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining tegishli kafedralari o'rtasida doimiy munosabatlar o'rnatilishini nazarda tutish; oliy o'quv yurtlarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish bo'yicha Tayanch oliy o'quv yurtlaridagi attestatsiya komissiyalarining shaxsiy tarkibini shakllantirish va tasdiqlash, har yil ularning hisobotlarini doimiy tinglash va zarur hollarda, ular tarkibiga o'zgartishlar kiritish.

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining oliy o'quv yurtlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish bo'yicha Tayanch oliy o'quv yurtlari Attestatsiya komissiyalari raislari lavozim maoshiga 30 foiz miqdorida ustama haq belgilash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin. Bunda Attestatsiya komissiyalari raislari qayta tayyorlashdan o'tgan va malaka oshirgan rahbar va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishning sifat darajasiga, qarorlar qabul qilishda xolislik, oshkoralik va prinsipiiallik uchun shaxsan javob berishi belgilab qo'yilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda mazkur Farmon ijrosini ta'minlash bo'yicha qaror qabul qilsin va unda quyidagilar ko'zda tutilsin: Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash; oliy o'quv yurtlari rahbar va o'qituvchi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo komissiyaning shaxsiy tarkibini tasdiqlash; Tayanch oliy o'quv yurtlarining o'quv-uslubiy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnikasi va o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlash choralari.

8. Mazkur Farmon ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. Mirziyoev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent shahri, 2015 yil 12 iyun

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. O'zbekiston o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992. –22 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O'zbekiston, 1996. T.1. –364 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995. –269 b.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O'zbekiston, T.3. 1996.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. –T.: O'zbekiston, 1997. T.5. –384 b.
6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. –T.: O'zbekiston, 2001. T.9. –439 b.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. –T.: O'zbekiston, 2005. –64 b.

8. Karimov I.A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. –T.: O'zbekiston, 2007, T. 15. -126 b.

9. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadi. –T.: O'zbekiston, 2007.

10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.

11. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi // “Xalq so'zi” gazetasi 2009 yil 14 fevral.

12. ISLOM KARIMOV. “O'RTA ASRLAR SHARQ ALLOMALARI VA MUTAFAKKIRLARINING TARIXIY MEROSI, UNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI ROLI VA AHAMIYATI” MAROSIMIDAGI NUTQI. Samarqand. 16.05.2014

2. Me'yoriy- huquqiy xujjatlar.

1.O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.

2.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 noyabrdagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1426-sonli Qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-4456-son Farmoni.

3. Maxsus adabiyotlar.

1. CLASSICS & ORIENTAL STUDIES HANDBOOK. Michigan, and
2011.<http://www.weblearn.ox.ac.uk/site/human/classics/degrees/handbooks>

http://www.orinst.ox.ac.uk/html/general/ba_classics_orientalstudies.html

2. Yo'ldoshev B. Umumiy tilshunoslik asoslari. S., 2005.

3. Abduhamid Nurmomnov “O'zbek tilshunosligi tarixi”. Toshkent “O'zbekiston” 2002.

4. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. T., 1971.

5. Ibn Sino. Fonetika haqida risola. T., 1979.

6. O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi tarixi. Samarqand, 1999.

7. H.Ne'matov. XI asrdagi turkiy tillarning Mahmud Koshg'ariy tomonidan qilingan tasnifi. o'zbek tili va adabiyoti. j. 1969. №4.

8. Arutyunova N.D. Yazik i mir cheloveka. - M.: Yaziki russkoy kulturi, 1999. - 896 s.

9. Kollektiv. Istoriya vseмирnoy literaturi. V 9-x tomax. Tom 1. M., 1982.

10. Buligina T.V. Shmelev A.D. Yazikovaya konseptualizatsiya (na materiale russkoy grammatiki). - M.: Yaziki russkoy kulturi, 1997.-576 s.

11. Vereshagin Ye.M., Kostomarov V.G. Yazik i kultura. - M.: Nauka, 1990.

12. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. - M.: Akademiya, 2001. -208s.

13. Malyavin M.A. Kitayskaya sivilizatsiya– Moskva: Izdatelstvo Muravey, 2000.